

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**



**ELLIKQAL'A PEDAGOGIKA FAKULTETI  
IJTIMOIY VA GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI  
5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi  
4- “A” kurs talabasi**

**TAZABAYEVA G'UNCHA BAXTIBAY QIZINING  
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: «HOZIRGI O‘ZBEK QISSACHILIGIDA ONA  
OBRAZINING BADIY TALQINI»**

Talaba: G'.Tazabayeva  
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. X.To'liboyev  
Kafedra mudiri: f.f.f.d. X.To'liboyev

*Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi yig'ilishining 2021- yil 20-  
maydagi 9- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

**NUKUS – 2021**

## **Davlat attestatsiya komissiyasi**

### **QARORI:**

5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4-«A» kurs talabasi Tazabayeva G’uncha Baxtibay qizining «Hozirgi o‘zbek qissachiligida ona obrazining badiiy talqini» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga « \_\_\_\_ » ball (« \_\_\_\_ %») qo‘yilsin.

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2021- yil

**DAK kotibi:**

**B.Madirimov**

<b>MUNDARIJA</b>		
	<b>KIRISH .....</b>	<b>4</b>
I BOB	<b>NOAN'ANAVIY TALQIN VA BUGUNGI O'ZBEK NASRI.....</b>	<b>8</b>
II BOB	<b>Qissada folklor an'analari va o'ziga xoslik.....</b>	<b>24</b>
III BOB	<b>Qissada badiiy til masalasi.....</b>	<b>36</b>
	<b>XULOSA.....</b>	<b>48</b>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>51</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi o'zbek nasrida modernizm oqimi haqidagi bahslar hali tugamasdan turib postmodernizm termini kirib keldi. Bugungi o'zbek nasrida bu mavzu hali tadqiq qilinmaganligining o'ziyiq uning dolzarbligini belgilab beradi. Postmodernizm ko'rinishlarini iste'dodli ijodkorlardan biri Isajon Sulton ijodi misolida tahlilga tortiladi. Adibning asarlari o'ziga xos badiiyati bilan ajralib turadi. Shu nuqtayi nazardan yozuvchining "Onaizorim" va "Munojot" qissalaridagi o'ziga xos badiiy talqin va falsafiylik haqida so'z yuritiladi. Bunday asarlarning vujudga kelishiga esa mustaqilligimiz alohida ahamiyatga ega. Istiqlol o'zbek olimlarini dunyo adabiyotshunosligi yutuqlari bilan tanishtirib, ijodiy jarayonga xolisona hamda samarali yondashuv tarzini shakllantirdi. Adabiyotshunoslik badiiy asarda tasvirlangan alohida shaxs, qahramon ko'nglidagi ruhiy tovlanishlar ildizini topa bilgandagina chinakam ilmiy xulosalar chiqaradi va bugungi yangilanib borayotgan badiiy adabiyotdagi turfa xil tasvirlarni, ohanglarni, jahon adabiyotidagi an'analarning ta'sirini haqqoniy baholash jarayonini boshdan kechirmoqda.

O'zbek nasri bugungi kunda yangilandi, bir qadar noziklashdi. Endilikda epik asarlar hayotning oddiy nusxasi yoki odamlarga qanday yashashni o'rgatadigan jo'ngina ijod mahsuli emas, balki alohida odam, uning his-tuyg'ulari, orzu-o'ylari bilan shug'ullanishga urinayotgan ko'ngil rozi sifatida bo'y ko'rsatmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek adabiyoti mafkuradan xoli bo'lib, ijod erkinligi bo'y ko'rsatgach, adabiyotda shakliy-ifodaviy eksperimentlar ko'lami kengaydi. Qalam ahlining ijodiy izlanishlari uchun katta ufqlar ochildi.

Adiblarimiz ijodida inson hissiyotlari qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi ismsiz va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi.

“Istiqlol va mustaqillik ma’naviyati tozarish faslini boshladi. Barkamol inson yaratishning miqyosi va mazmuni kengaydi: islom yuksak madaniyat va ma’naviyatimizning asosiga aylandi”<sup>1</sup>.

Yuqoridagi fikrlarni bir maxrajga umumlashtiradigan bo‘lsak, o‘zbek adabiyotida yangicha yo‘sinidagi asarlarning namoyon bo‘lish yo‘llarini, badiiyatini, estetik ahamiyatini, umuminsoniy va milliy ildizlarini, taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish dolzarbdir. Shu ma’noda, Isajon Sulton asarlarida yangicha talqin masalasini o‘rganish adib ijodi xususida muayyan ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi shu jihati bilan dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Tadqiqotning asosiy maqsadi yangi shakl va mazmun jihatdan boyib borayotgan badiiy adabiyotdagi o‘zgarishlarni ko‘rsatib berish orqali postmodernizm oqimi taraqqiyotidagi ilk kurtaklarni, talqin xususiyatini bir adib ijodi misolida asoslashdan iboratdir. Shu jihatdan postmodern taraqqiyotidagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil qilishda quyidagi vazifalar yuzaga chiqadi:

- xalq og‘zaki ijodi an‘analarini Isajon Sulton ijodiga ta‘sirini va sentizlashuvini o‘rganish jarayonida umumiy xulosalar chiqarish;
- keyingi yillar qissalari taraqqiyotidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish va noan‘anaviy talqin xususiyatini ko‘rsatib berish;
- XX asr adog‘idagi noan‘anaviy va an‘anaviy talqinni o‘ziga xosliklarini ko‘rsatib berish;
- adib ijodiga g‘arb adabiy an‘analarining ta‘sirini tadqiq etish;
- adib asarlaridagi ramziy tasvir xususiyatini va ma‘no ifodalashini tahlilga tortish.

**Mavzuning o‘rganilish darajasi.** Bugungi kunga kelib yozuvchi Isajon Sulton ijodi haqida turfa xil fikrlar bayon qilinmoqda. Ana shu fikrlarga munosabat

---

<sup>1</sup> X. Умуров. Таҳлил чизгилари. – Тошкент, “Муҳаррир”, 2013. 239-бет.

bildirish orqali, adibning o'ziga xos tasvir usulini tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Tadqiqotda milliy istiqlol davri bergan imkoniyatlardan va nazariy mulohazalardan xulosalar chiqarish va adibning bu janr taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatishdan iborat. Bulardan tashqari tahlil jarayonida romanchilikning keyingi yillardagi taraqqiyoti postmodernizm va uning o'ziga xos noan'anaviy talqin xususiyatlarini bir ijodkor yaratgan asarlar misolida tahlil qilishdan iboratdir.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilarda ko'rinadi:

1. Asar badiiyati bo'yicha jahon va o'zbek adabiyotshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari, badiiy tasvir usulidagi intertekstual talqin orqali yozuvchi ilgari surgan g'oyalar;

2. Bugungi o'zbek nasri rivojida yangilanishlarning o'rnini, badiiy-estetik vazifalari ahamiyatini o'rganishning dolzarbligi Isajon Sulton romani misolida ko'rsatilishi;

3. O'zbek nasrida falsafiy va ramziy xarakterdagi asarlar faqatgina shakliy-mundarijaviy o'zgarishlar bo'lmasdan, qalb dialektikasi tomon burilish an'anasi yuzaga kelayotganligi, adiblarimizning fikrlash tarzida odam va olam o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni talqin etish jarayoniga e'tibor qaratish;

4. Isajon Sulton ijodidagi falsafiy talqin orqali yozuvchi chiqarayotgan xulosalarga munosabat bildirish;

5. Hozirgi o'zbek nasrida noan'anaviy talqin usuliga munosabat bildirish va bir roman misolida o'z xulosalarimizni bayon qilishdan iborat;

**Tadqiqotning metodologik asosi va metodi.** Tadqiqotda milliy istiqlol davrida yaratilgan nazariy qarashlarga, Sh.Mirzoyoevning adabiyot haqidagi mulohazalariga asoslanamiz. Ishda I.Sulton, I.G'afurov, S.Mamajonov, O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, N.Karimov, A.Rasulov, D.Quronov va boshqa adabiyotshunoslarning badiiy ijod yo'nalishidagi fundamental tadqiqotlaridan foydalaniladi. Postmodernizm oqimi bilan maxsus shug'ullangan M.Xolbekov, M. Mahmudov, U.Hamdani kabi adabiyotshunoslarning ilmiy ishlari ushbu tadqiqotni bajarishga yordam beradi hamda postmodernizm oqimi tarixi va nazariyasiga daxldorlari asosiy manba vazifasini o'tadi.

Tadqiqot struktural, psixologik va biografik, qiyosiy- tarixiy, metodlarning birikuvidan tashkil topdi.

**Tadqiqot predmeti va obykti.** Milliy istiqlol davri falsafiy tafakkuri va adabiy mohiyatini tubdan yangilashga intilayotgan Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasi tadqiqot obykti vazifasini bajardi. Isajon Sultonning mahoratini namoyon etuvchi konseptlar, badiiy uslub, romanlari poetikasi o`ziga xosligi hamda badiiy yaxlitlikda tutgan o`rni hamda badiiy-estetik prinsiplarni tadqiq etish BMIning predmetini tashkil etadi. Tadqiqotda Ishning asosiy obykti hisoblanadi.

**Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati.**

Uning materiallaridan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda hozirgi o‘zbek nasrining o‘zgarib borayotgan tasvir usulini o‘ziga xosliklarini o‘rganishda foydalanish mumkin. Yozuvchining ijodini tahlil qilishda uslubiy ko‘rsatma vazifasini bajarishi mumkin.

**Tadqiqotning tuzilishi.** Ish kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, hajmi 52 sahifadan iborat.

## **I-BOB. NOA'ANAVIY TALQIN VA HOZIRGI O'ZBEK QISSACHILIGI**

O'zbekistonning milliy istiqbolga erishuvi mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub islohotlar olib borilishiga sabab bo'libgina qolmay, xalqning moddiy-ma'naviy turmushini ham o'zgartirib yubordi. Inson ma'naviyati milliy o'zlikni anglashning eng muhim omili ekanligi ayon bo'ldi. Fan va madaniyat, adabiyot va san'at borasida qisqa fursat ichida mislsiz o'zgarishlar ro'y berdi. Moddiy talab va ehtiyoj bozor iqtisodiyoti muammolari bilan yuzma-yuz kelgan insonni taraqqiyot sari intilishga, zamon taqozo etgan fan va texnika yutuqlarini egallashga, raqobat olamida sinib qolmasligi uchun tinimsiz harakat qilishga majbur qiladi. Yozuvchida haqiqiy erk bo'lsa, yozish kerak bo'lgan narsalarni yozishga qul bo'lmay, ko'ngli chopgan narsani yozsa, majburiy traditsiyaga emas, o'z mayliga bo'ysinsa haqiqiy badiiy asarlar yuzaga keladi. Hayot – bir tekis tartib berib osilgan chiroqlar emas, hayot bu pirpirab turuvchi nur chambar, yorug` dunyoga kelganimizda to ketgunga qadar o'rab turgan yarim qaltroq qobiqdir. Olamni anglash, o'zlikni anglash sari yetaklaydi. Shuning uchun adabiyotshunos U. Normatov quyidagi fikrlarni qayd qiladi: “Dunyoni larzaga solgan inqilobiy o'zgarishlar, millionlab odamlarni, ko'plab mamlakatlarni chalg`itgan, adashtirgan, halokat chohiga tortgan qudratli tuzum va mafkura o'tkinchi, kuni bitganda o'z – o'zidan to'kilib nom – nishonsiz yo'qolib ketadi. Ammo inson zotiga ato etilgan insof, vijdon, aql – zakovat boqiy. Tashqi va ichki tazyiqlar, shayton vasvasasi har qancha yo'ldan ozdirmasin, baribir, ertadir – kechdir bu mo'tabar xislatlar inson tanida yana qayta tiriladi, uni o'zligiga qaytaradi”<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, keyingi davr adabiyotida o'zlikni anglash yo'lida iztirob chekayotgan badiiy obrazlar yetakchilik qilmoqda. Iste'dodli yozuvchi Isajon Sulton (Sultanov) 1967 yil 6-aprelda Farg`ona viloyatining so'lim go'shalaridan biri Rishton tumanining Avazboy qishlog`ida tavallud topdi. O`rta maktabni a'lo baholarga tugatib, beg`ubor orzulari bilan Toshkentga yo'l oladi. Ilk bor omadini O`zbekiston Milliy

---

<sup>2</sup> U. Normatov. Умидбахш тамойиллари. – Тошкент, “Маънавият”, 2002. 8-бет.



universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga topshirish bilan sinab ko'radi. Taqdirning inoyatini qarangki, yuragida adabiyotga ishtiyoqi baland bo'lgan Isajon Sulton mazkur oliygohning talabasiga aylanadi. Bu davrda juda ko'plab hayotiy, ilmiy va ijodiy tajribalarni to'playdi. O'zining hikoya qilishicha, Milliy universitetni imtiyozli diplom bilan tugatish baxtiga muyassar bo'ladi. Ijod namunalari Respublika matbuoti sahifalarida 1986-yildan beri e'lon qilinib kelinmoqda. Ijodini birin-ketin hikoyalar yozish bilan boshlagan yozuvchi o'ziga xos uslubda yozilgan "Munojot" qissasini 1990-yil, ya'ni yigirma uch yoshida e'lon qiladi. Keyinchalik "Oydinbuloq" (1995), "Boqiy darbadar" (2011) kitoblari chop qilindi.

Shuni alohida qayd etish zarurki, yozuvchi kim va nima haqida qalam tebratmasin, hamisha kishi diqqatini o'ylashga undaydi, inson qalbining teranliklariga kirib borishga harakat qiladi. Adabiyotshunos N. Rahimjonov qayd etganidek: "Adabiy jarayonda tabiat, jamiyat, inson hayotida kechayotgan voqea – hodisalar, o'zgarishlar shaxs erki, millat huriyati, Vatan istiqloli va istiqboli nuqtayi nazaridan o'rganilmoqda, estetik baholanmoqda. Shu ma'noda, inson ko'ngli barcha buhronlar sil silasini sintezlashtiruvchi mehvar bo'lib qoldi. Oftob nurini linzaga joylab, bir nuqtaga yo'naltirilsa tog'larni tolqonga, qoyalarni payrahaga aylanitirib yuboradi. Istiqlol adabiyoti ko'ngillarni ma'rifatli qilish orqali ong-shuurlarni hikmatga o'girish, jamiyat didi – saviyasini yuksaltirish, boqiy bashariy qadriyatlar yaratishdek ezgulikka safarbar"<sup>3</sup>.

Darhaqiqat, istiqlol davri adabiyotining taraqqiyotida Isajon Sultonning alohida o'rni mavjud. Adibning asarlarni o'qigan kitobxon qalbning bepoyon kengliklarida sayr qiladi. Va, u yerdan ma'no izlaydi, kitobxonga sohir va beg'ubor ma'no hadya qiladi. Bir paytlar men hali yosh edim. Litseyda o'qib yurgan kezlarim edi o'shanda. Buyuk yozuvchi Dostoyevskiyni o'qigandim. Bunchalik katta qalbni tahlil qilishni qoyillatgan daho ijodiga mehrim ortib, mahliyo bo'lgandim. Bunga qanday erishgan ekan degan mushohadalar yillar xayolimni bandi qilib kelayotgandi. Kunlar o'tib, adabiyotimizda mana shunday qalb dialektikasini yoritishga bel bog'lagan ijodkorlar maydonga

---

<sup>3</sup> N. Раҳимжонов. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент, "Ўқитувчи", 2012. 22-бет.

chiqayotganini ko‘rib faxrlanasan kishi va bularni, o‘z navbatida, faqatgina e‘tirof etish joiz, deb o‘ylayman. Sevimli adibimiz Isajon Sultonning bir necha hikoyalari "XX asr o‘zbek hikoyalari antalogiyasi"dan o‘rin olgan. Xususan, "Oydinbuloq" to‘plamida adibning kamolotga yetib, o‘ziga xos yo‘l ochgan qirralarini namoyon etib turuvchi asarlari jamlanganini ko‘rish mumkin. Unda "Munojot" qissasi ham o‘rin olgan. Qissada G‘arib ismli bolakay hayoti tasvirga olinadi.

“Iste’dodlar har kuni tug‘ilmaydi, uni davr va muhit voyaga yetkazadi” deya aytgan edi allomalardan biri. Rosmana iste’dod hamisha o‘zining “qalb ruhoniy borlig`ini inkishof qiladi” (Gyote). To‘g‘ri, kunimizda adabiyot va uning "bugungi darajasi" xususida turli xil bahslaru fikr-mulohazalarga duch kelamiz. Lekin hammasi Shukur Xolmirzayev ta‘biri bilan aytganda "adabiyot inson uchun, uning qalbini, hasratini, boringki qismatini ifoda etmoq lozim" deganiga yaqin fikrlarni ilgari surayotgandek... Ayniqsa, bugungi milliy adabiyotimiz, xususan, nasrdagi evrilishlarni tan olish kerakki, jahoniy asarlar qatorida qo‘yib tahlil qilishni talab qilmoqda. Chunki yaratilayotgan badiiyat durdonalari xususida shunday taxminlarga kelishmoqda munaqqidlarimiz. E‘tirof etilgan asarlar soni ham anchayin bisyor.

Hozirgi vaqtda davriy matbuotda “avlod” masalasi va ularning yaratgan asarlariga oydinlik kiritmoq uchun “adabiy suhbatlar” uyushtirilayotir. Ya’ni XX asr adabiy yo‘nalishini belgilovchi bir necha jihatlar asr ibtidosidan to shu kunimizgacha “bosib o‘tilgan” yo‘l to‘g‘risida aniq bir to‘xtamga kelingani yo‘q. Buni "izm"lar o‘zgarishi, davr va tuzum yangilanishi natijasi zamirida kuzatganimizda ham ko‘rishimiz mumkin. Ammo yuqorida aytganimizdek, adabiyot qaysi davr va zamonda yashamasin, hamma vaqt inson va uning “orzu-umidlarini”, “quvonchu tashvishlarini” inkishof qilishda davom etaveradi. Negaki, inson o‘ziga yo‘l axtarar ekan, ilk bor adabiyot ko‘chasidan o‘tadi, o‘zining qalbiga hamohang jihatlarni yuragiga singdiradi. Busiz hayoti ruhsiz va tuzsiz bo‘lib qolishi turgan gap. Ayniqsa, shiddat bilan rivojlanayotgan dunyo qiyofasi, uning har bir a‘zosi ongli ravishda - adabiyot atalmish sirli jumboqning qarshisida hoziru nozir. Darhaqiqat, “Adabiyot yashasa - millat yashar” (Cho‘lpon).

Jamiyat hayotidagi tub evrilishlarni to‘laqonli his qilib, uning puchmoqlariga nazar tashlab, "yangi uchinchi ming yillik insoni qayerda?", "u nima bilan band?" degan savolga javob axtarishmoqda iste’dodli adiblarimiz. Turfa xil ne’matlar oldida "chorasiz" qolgan bani bashar o‘zining murodu maqsadlariga to‘laligicha erishmoqdami? Dunyoga kelib, aqalli bir ishni bajarish istagida yonayotgan qalb egasi haqiqatdan ham "ezgulik"ning mayog`ini tutganmi? Uning avlodi-chi? Umuman bugungi "yangi inson" deb nomlanayotgan insonning "yuragida nima bor?" Hamon o‘tlig` yurak bilan hamma insonlarni sevib biladimi? Milliy urf-odat, misqollab yig`ilgan qadriyat haqida o‘ylashadimi? Savollar esa bisyor. Bunga bir so‘z bilan javob berish ham mushkul vazifa. Iste’dodli adiblarimiz jahoniy asarlar yaratish yo‘lidan bormoqda. “Kutilmagan fikrlari bilan ko‘pchilikni hayratga solib kelgan bu yozuvchi – faylasuf dunyoga juda teran nazar tashlaydi. Shu bois uning paradokslari, jumboqli mulohazalari hali biron bir faylasuf yoki donishmand oxirigacha anglab yetmagan kajraftori falakning inson tafakkuridagi ifodasi bo‘lib tuyiladi. Falsafa va badiiy ijodning bir biriga mushtarak qilib turgan bir narsa bor – u insonning xayol o‘yinlaridir”<sup>4</sup>.

Badiiy adabiyotda falsafiy talqin keyingi davr adabiyotida o‘ziga xos tarzda yuksalib bormoqda. Bir paytlar Shukur Xolmirzayev "mening hamma yozganlarim dunyo hikoyachilik maktabiga bo‘ylab yozilgan, hatto Xemingueylar ham menchalik xo‘p va ko‘p yozmagan edi" deya iqror bo‘lgandi umr shomida. Binobarin, 2010-yil adabiy hayotimizda katta yangilik, “voqea bo‘ldi”. Bu iste’dodli adibimiz Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining dunyo yuzini ko‘rishidir. Darvoqe, postmodernizm oqimining o‘ziga xos namunasi deya e’tirof qilinayotgan "Ozod" (2011) romani yozuvchi falsafiy tafakkur olamning yuksakligidan, jahoniy asarlar yaratish ehtiyoji sifatida qaraganimizda masala mohiyati yanada oydinlashadi. Adibning 2015 yilda chop qilingan “Bog’I Eram” kitobidan o‘rin olgan “Onaizorim” qissasi adabiy hayotimizda yangi hodisadir.

---

<sup>4</sup> В. Алимасов. Фалсафа ёхуд фикрлаш чанқоғи. – Тошкент, “Фалсафа ва ҳуқуқ” нашриёти, 2007. 214-бет.

Adabiy asar jamiyat badiiy-estetik tafakkuri in'ikosi sifatida yuzaga kelar ekan, olam ichra evrilayotgan inson adabiyotning bosh mavzusi bo'lib qolaveradi. O`zining bir asrlik tadrijida o'zbek nasrining zamonaviy shakli yuzaga keldi, shakllandi, taraqqiy etdi. E'tirof etish kerak, o'zbek adabiyotida realistik nasr taraqqiyoti to'rt manbaga - voqelik, xalq og`zaki ijodiyoti, klassik adabiyotning boy an'anasi va rus, qardosh va jahon xalqlari romanchiligiga asoslangan. Asar haqida so'z yuritgan adabiyotshunos olimlar qahramonlarning o'ziga xos xarakter qirralarini ochishga xizmat qilgan tasvir jarayoniga e'tibor qaratadi. Adibning ilk qissasi "Munojot"da G'arib timsoliga duch kelamiz. Bu haqda R.Rahmat shunday yozadi:

"G'aribning tug'ilishidagi noodatiylik va favqulodda qobiliyatining tez namoyon bo'lishi ham qadimgi dostonlarimizni yodga soladi. Alpomish olti yoshida hech kim ko'taraolmagan kamonni ko'taradi. Majnun, hali emaklab yurgan paytidayoq, qayerda olov ko'rsa, ishq otashimikin deb unga tomon intiladi. G'arib esa tabiat bilan dillashishni xush ko'radi. G'arib tabiat manzaralari, hodisalari, ulardagi o'zgarishlar zamirida ulkan sohir qudrat nafasini his etib turadi. G'aribning iste'dodi tabiat bag'ridan, go'zal manzaralardan hikmat topadi"<sup>5</sup>.

Zamonaviy o'zbek nasrining taraqqiyoti bugungi kun nuqtayi nazaridan qaraganda qaysidir jihatlari bilan qoniqtirmasligi tabiiy. Totalitar tuzumning nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga, siyosatiga tazyiq o'tkazishi, fan va adabiyot ishlariga ham aralashuvi o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymadi, albatta.

Milliy istiqlolga erishish O'zbekistonga nafaqat jahon hamjamiyatida suveren davlat huquqini berdi, balki ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy-madaniy, ilm-fan, san'at va adabiyot sohalarida umumjahon darajasiga ko'tarilishi uchun tinimsiz izlanish, o'rganish imkonini yaratdi. Milliy istiqlol yozuvchilarga tom ma'nodagi so'z, ijod erkinligini berdi. Milliy istiqlolning 21 yillik tiklanish davrida 21 yoshga to'lgan,

---

<sup>5</sup> Раҳимжон Раҳмат, Сўнг сўз "Муножот"дан "Боқий дарбадар"гача. -Т.: "Ўзбекистон", 2011. 255-бет.

qo‘li qog‘oz qoralashga borib qolgan yosh yozuvchilar qatori, bu kabi yoshlarni qo‘llab-quvvatlab, o‘zlari ham tinimsiz samarali ijod qilayotgan yoshi ulug‘ yozuvchilarning ham asarlari dunyo yuzini ko‘rmoqda. Xususan, hajman katta hisoblanmish roman janrida yaqin o‘tmish - mustabid tuzum sharoitidagi voqeliklar ko‘plab qalamga olindi. Bu - tabiiy hol. Yozuvchilar ruhida, orzuxayollarida mustabid tuzumga nisbatan norozilik yillar davomida chaqnab yotgan dardga aylangan edi. Bu dard o‘zbek romanlarida voqelikka nisbatan realistik munosabatni ifodalash orqali namoyon bo‘ldi. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa”, “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Tepalikdagi xaroba”, O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanlarida XX asrda o‘zbek xalqi taqdiridagi eng og‘riqli, ziddiyatli holatlar badiiy inkishof etildi.

Badiiy asar – o‘ziga xos bir olam! Unda millat ma’naviyati va sajiyasi aks etgan bo‘ladi. Adabiyot tarixini sinchiklab kuzatar ekanmiz, munis onalar haqida, aniqrog‘i ONA siymosini aks ettirgan asarlar uzoq tarixga borib taqalmasa ham, u yoki bu janr tarkibida – onalar obrazi o‘ziga xos tarzda inkishof qilingani ayni haqiqat. Bir qator asarlari bilan adabiyotimizda munosib o‘rin tutgan O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub “Dunyoning ishlari” qissasidan keyin, ona mavzusining yuksak namunlari xoh she’riy, xoh dramatik janrda qalamga olinib kelinayotgani barchamizga ma’lum. Istiqlol davri adabiyotini betakror asarlari bilan boyishiga xizmat qilib kelayotgan iste’dodli adib Isajon Sultonning “Onaizorim” asari qissachilik an’analarinining ajib chizgilarda davom etayotganidan dalolat beradi. Adib bir inson tiynatiga, aniqrog‘i o‘zbek ayoli siymosini o‘tkir lirizm bilan tasvirlashga erishgan. Qissa shunday janrki, unda epik ko‘lam, vaqt, voqealar silsilasi romanga nisbatan xiyla kichikroq, ixchamroqdir. Qissa tabiati, uning ifodaviy xususiyati o‘ziga xos: bir oila yoki inson qismatiga daxldor jamiki unsurlar bitta markazda uyushadi. Adib Ra’no ismli qizaloqning dunyoga kilishidan hayotdagi achchiq qismati qanday bo‘lib o‘tganligini tasvirga oladi. Qissa bosh qahramoni - Ra’no! Qizaloqning turli xil taqdirlarni boshidan o‘tkazganligi, achchiq qismati yillar o‘tgani sayin murakkablashib, vaqt

sinovlarida charxlanib, kamol topib borishida ajib hikmat yashirin. Unda bir ayol qalbidagi evirilishlar, topishlaru yo‘qotishlar davomiy ekanligiga ishora mavjud. Ra‘noning taqdirida ikki xususiyat bo‘rtib ko‘rinadi: birinchidan, Ra‘no taqdir atalmish azim daraxtning bir novdasi. Uning unib, gullab ketishida atrof-javonibdagi munosabatlar tig‘izlashuvi bo‘lsa, ikkinchidan, uning o‘zga uyga kelin bo‘lib tushushidir. Milliy mentalitetimizga xos an‘ana va qadriyatlar qissa voqealariga parallell tarzda tasvirlanadi. Adib umr ramzi sifatida – suv obrazi (ariq)dan ohorli tashbeh yasaydi:

*“– Ariqcha, oqyapsanmi?”*

*– Ha, qizgina, oqyapman.*

*– Otam erga beraman deyapti, nima qilsam ekan?”*

*– Hammaning boshida bor bir qismat-da, ko‘nmay qayga borarding?”*

*– Qaydam... Qanday odam ekan, qanaqa xonadon bo‘lar ekan, o‘ylab o‘yimga etolmayman.*

*– Tashvish qilma, Xudo senday qizni yaratadi-yu baxtingni bermaydimi?”*

*Xudo xohlasa, ajoyib hayot kechirasan, bir etak bolalaring ham bo‘ladi.”*

*(“Onazorim”).*

Mazkur dialogik nutqning o‘zidayoq “ariq va qiz” munosabatlari, munozaralari aks etgan bo‘lsa-da, juda soddadek tuyulgan muhosaba negizida insonning real hayotga bo‘lgan intim qarashlari qabarib ko‘rinadi. Xalqimizda “oqqan daryo oqmay qolmas” degan ibratli maqol bor. Qissada boshdan-oyoq ushbu jumlagga bot-bot murojaat qilinadi. Adib monologik nutqi matn qa‘riga singdirilib yuborilgan. Bu syujet liniyalarini bir-biriga payvanlashda, voqelarning kompozitsion yaxlitligini ta‘minlashga xizmat qilishi uchun juda qulay vositadir. Qissadagi ushbu bir jumlaning har bir voqelar rivojida akslanishi, adib g‘oyalarining muayyan muammoni hal qilib borishi yoki o‘quvchiga tanishtirishi uchun kalit vazifasini o‘tgan.

Qissadagi har bir epizod – o‘z missiyasidagi vazifani baholi qudrat hal qilishga erishgan. Ra‘no tabiatan nozik, o‘ta ta‘sirchan, u hayvonot va nabotot olamining chuqur bilimdoni, qiziquvchanligi uning hayot tajribalarini boyitib

boradi. Mehnatkash o‘zbek ayolining umr bo‘yi “bolam-chaqam” deb yashashi, baxt suvratini jujuqlarining ko‘z yoshlaridagi sevinch va shodliklarida ko‘rishdan iboratligini anglab etishida oydinlashadi. Aslida ham shunday! O‘zbek ayolining suyaklari og‘ir mehnatda qotgan, beminnat mehnatlari evaziga hayotidan mamnun yashashi Ra‘no timsolida teran lirizm bilan inkishof qilingan.

Qissadagi kuchli lirizm muhim ahamiyat kasb etadiki, unda yozuvchi qahramon xarakterini individuallashtirishga diqqat qaratadi. Bir tomondan bular o‘z xususiyati bilan alohidalik tomon harakat qilsa-da, voqelik dramatismiga also rahna solmaydi. Ra‘no tabiatidagi o‘rish-o‘zgarishlar mantiqiy fikrlovchi inson uchun hech qachon qiyinchilik tug‘dirmaydi. Binobarin, qissaning poetik matnida obrazlar galeriyasi bir butun holda gavdalanadi. Talqin rang-barangligini yuzaga keltirgan mavjud tushunchalar talqin mustaqilligiga yo‘l ochadi. Adib qishloq ahli va uning hayotini chizishga intilar ekan, buni quyidagi tasvirlarda aks ettirishni maqsad darajasiga ko‘taradi:

“Bahor keldi.

Ona ketmonni olib, tomorqa chopdi. Hamma ishni otangga tashlab qo‘yib o‘tiraverishimiz insofdan bo‘lmaydi, dedi u. Tomorqalar bir-biriga tutashib ketgan, narigi hovlilarda ham bola-chaqasi bilan er chopiyotgan kishilar ko‘rinar edi. SHunaqa ishlarni ham o‘rganib olaqol, vaqti kelib kerak bo‘lib qoladi, dedi onior. Erni bir yarim ketmon chuqurligida chopasan. Tagida unumdor qatlami bor, u qoramtirroq bo‘lib ajralib turadi, chopganingda olgan tuprog‘ingni ag‘darib ketaverasan, shunda unumdor qatlam tepada bo‘lib qoladi, ana o‘shanga urug‘ qadalsa, hosil yaxshi bo‘ladi. U ro‘mol bilan boshini boylib, oyog‘iga etik kiyib olgan edi. Ona yonida baravar er chopi boshladi. Ketmon g‘uvullab tushganida eski tomirlarni tikkasiga kesib yuborar, er ostiga in qurgan qurtu qumursqalar jonholatda har tarafga qochar edilar. Bo‘liniba ketgan chuvalchanglar to‘lg‘onardi. “Borib tovuq katagini ochib yubor, bir mazza qilishsin”, dedi ona, kulimsirab. YUzi qip-qizil bo‘lib bo‘g‘riqib ketgan edi. Ra‘no chopib borib, sim ilagagini tushirib, katak eshigini ochgan edi, tovuqlar chopilgan er bo‘ylab yoyilib ketishdi. Qandaydir qushlar ham uchib kelib, uchib-qo‘nib rizq izlay boshlashdi.

- O'lsin-a mehnati, - dedi ona, ro'moli bilan pashanasining terini artib. – Belim qotib qoldi.

SHu tobda u judayam istarali edi. Ra'no qarab turib, mahkam quchoqlab oldi.

- Sizni yaxshi ko'rib ketyapman, - dedi yuzini ko'ylagiga ishqab.

- Aylanay jonim qizimdan, - dedi ona ham. – Bo'laqol, ishimiz ko'p.

SHu mahal onaning ukalari – tog'alar ham etib kelishdi-da, barchalari birgalashib, kechgacha er chopishdi.

SHom mahali kirib kelgan ota buni ko'rib mamnun bo'ldi. – Kechikib ketyapti deb tashvishlanib yuruvdim, yaxshi qipsizlar, - dedi onaga. – Bugun o'zim bir osh damlab beray sizlarga”<sup>6</sup>.

Mazkur parchada adib Ra'no va uning oilasidagi samimiyligni, oddiy qishloq odamlariga xos mehribon tuyg'ularni o'ta mahorat bilan tasvirlashga harakat qilgan. YA'ni bu o'rinda qiz va onaning beminnat mulohazalari, otaning mehribonligi, ularning hayot tarzini haqqoniy tasvirlay olgan talqinlarda milliy xarakter qirralari yanada ochila boradi. Noa'naviy talqin qa'tida millat ma'rifati va mentaliteti aks ettirilgani ishonarli chiqqan. Otaning farzand va oilasiga mehribonligi, ularni o'ylab o'zini o'ta og'ir mehnatlarga urishi o'zbekona ruhda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Adib bir necha o'rinlarda bosh qahramon tiyatini individuallashtirishga e'tibor qaratadi. Taniqli adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev: “YOzuvchi uslubida kitobxon diqqatini tortadigan va kishini jalb etadigan o'ziga xos bir jihat shundaki... personajlarni oshiqmay, hovliqmay, qisti bastiga olmay, xotirjam, vazminlik bilan tasvir etadi. Ayni vaqtda, qahramonning o'zi bo'la biladi, uning ruhiga kira oladi”<sup>7</sup>. Darhaqiqat, mazkur fikrlarni I.Sulton ijodiga ham taalluqlidir desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, adib bir-biriga payvandlangan tasvir drammatizmida sira voqelikni bo'rttirishga oshiqmaydi, xarakter qirralari bilan gavdalantirishni bosh maqsad darajasiga ko'taradi.

---

<sup>6</sup> Ўша асар, -29-бет.

<sup>7</sup> Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Т.: “Янги аср авлоди”. 2006. 125-б.



“Asl badiiy asar vositasida yozuvchi naffaqat zamondoshlariga, balki kelajak avlodga ham ta’sir o’tkaza oladi. SHuning uchun ham adibning siyosiy mansubligi, ijtimoiy yo‘rig‘i, badiiy olami qonuniyatlarini kashf etish muhimroqdir. Negaki, chinakam badiiy asar abadiyat bilan yuzlashmoqqa da’vogar bitikdir. SHuning uchun ham badiiy asar tekshirilayotganda adibning kimga xayrixohligini qanday siyosiy maqsadni ko‘zda tutgani bilan emas, balki badiiy tasvirlash mahorati nechog‘liligini aniqlash asosiy maqsad bo‘lishi lozim”(Q.Yo‘ldoev) degan fikrlar hamma zamon uchun muhimroqdir.

Badiiylikning zalvori – asar qiymatini aniqlash bilan belgilanadi. Qissaning o‘ziga xos talqin usulida ham biz yuqorida qayd qilingan fikrlarning mavjudligini anglaymiz, his qilamiz. Asarda obyektiv, ya’ni mavjud borliq, voqea va hodisalar, tashqi tasvir, qahramon xatti- harakatlari, uni o‘rab turgan muhit va sharoit, zamon va makon endi to‘g‘ridan –to‘g‘ri badiiy to‘qimaga aylantirilmay, balki ularni inson tasavvuri, shuuriga ta’siri, qahramonning hayotga va olamga munosabatini teranlashtirmoqda. Badiiy qahramon muallif yaratgan xarakter emas, balki o‘zini-o‘zi “ixtiro” qilgan, o‘z tasavvurlari, ong oqimi asosida shakllanayotgan personajga aylanib bormoqda. Endi kitobxon qahramon bilan emas, balki uning ma’naviy olami “tafakkuri” bilan muloqotga kirishadigan, uning tafakkur jarayoni bilan bahslashadigan holatlar yuzaga chiqayotganligini ham alohida ta’kidlab o‘tish joizdir. So‘nggi paytlarda ba’zi ijodkorlar, masalan: To‘xtamurod Rurstam, Salomat Vafo, Isajon Sulton kabi yozuvchilar oddiy tasvir uslubidan emas, aksincha, biz ko‘nikib qolgan syujet, kompozitsiya qurilishlari xronologik mutanosiblik asosida hikoya qilinadigan voqea-hodisalar silsilasi, ya’ni an’anaviy tasvir usuli o‘rniga qahramon ong oqimini aks ettirish, buning uchun esa o‘zgacha tasviriylik yo‘llarini tanlash ko‘zga tashlanmoqda. Bu tasvir usuli o‘zbek adabiyotiga 80-yillarning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan edi. “...psixologik holatlarning eng teran qatlamlarida ro‘y beradigan oniy o‘zgarishlar, ruhiy po‘rtanalar qay tarzda xatga aylanadi, uning texnikasi qanday sirligicha qolaveradi, shu bois tafakkurning oniy lahzalarida bir silkinish tarzida yuz berayotgan, haqiqiy tushga o‘xshatish ruhiy holat qanday usullar bilan qog‘ozga ko‘chdi, nega u

hozirgacha adabiyotimiz tasvirlab kelgan “soxta” tush tasviridan o’ta farqliligicha, noma’lumligicha qolaveradi”<sup>8</sup>.

Adabiyotshunos No’monjon Rahimjonov yozganidek: “San’atda aks ettirilgan barcha narsa va har qanday asar ham boqiylikka ega emas. Asl san’at oddiy va kundalik ashyolarga shunday ma’no yuklay oladiki, natijada o’sha tasvirlanayotgan hayotiy mazmun tarixiy mohiyat kasb etadi. San’atning betakror salohiyati ham shundaki, u ayni shu davrdagi odamlar ongi, shuurini, hayot nafasi va jamiyat ehtiyojlarini tasvirlayotgan mazmunga singdirib yuboradi”<sup>9</sup>.

Haqiqatdan ham, san’at asari badiiy adabiyot insonni turfa xil qirralarini asrlar davomida kashf etib kelmoqda. Insonning o’zi o’tkinchi bo’lsa-da, uning ma’naviy olami go’zalliklar yaratishga intiladi, ba’zan esa, yovuzlik ustunlik qiladi, chunki inson hayoti davomida o’zi bilan o’zi kurashib yashaydi. Uning xarakteridagi shaytonning vasvasalari, nafsning kirdikorlarini o’zidan uzoqlashtirish uchun ham kurashadi. Insonning botiniy olamida kechayotgan bunday kurashlarni anglash, anglatish jarayoni esa chinakam badiiy mukammal asarlarini yuzaga chiqaradi.

Qissa sujetidan o’rin olgan “Ona va qiz”ning hayot, olam, odam haqidagi mulohazalar ham o’ziga xosdir:

“Otang kelganida “Assalomu alaykum” deb, qo’lingni ko’ksingga qo’yib, burro-burro qilib salom berasan, – deb qulog’iga quyadi ona. – Salom berganingda baqrayib qarab turmaysan, darrov qaytib, ishingga urinasan.

Sen qiz bolasan, tengdoshlaringga salom bermasang ham bo’laveradi, lekin kattalarga albatta salom berasan.

Kattalar senga salom berishsa, alik olmaysan, xuddi eshitmaganday, shoshib o’zing salom berasan.

Qizalog’im, har muomilaning o’z odobi bor. Mehmon kelsa, darrov yangi to’shaklardan opkelib solasan, fотиha qilingach, dasturxon yozasan.

---

<sup>8</sup> Назаров Б., Тенглашев М. Қисматга қастма-қасд. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. 1989.28-апрель.

<sup>9</sup> Раҳимжонов М. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент, “Ўқитувчи”, 2012. 27-бет.

Dasturxonni teskari yozib bo‘lmaydi, xafa bo‘ladi, yuzimni teskari qildi deb. Kelgan kishi sanog‘iga qarab to‘rtta, oltita yoki sakkizta non, qand-qurs, meva-turshak qo‘yasan. Nonni toq qo‘yib bo‘lmaydi. Nonni teskari qo‘ysang, u ham dasturxonga o‘xshab xafa bo‘ladi. Mehmon kutishning o‘ziga xos odoblari bor, qay tarzda hol-ahvol so‘rashishu qay tarzda xayrlashishgacha asta-sekin o‘rgataman, ammo uyda o‘zimiz o‘tirganimizda ham odobga rioya qilishing shart. Masalan, kechagiga o‘xshab sirayam to‘rga chiqib ketmaysan, qiz bolasan-ku, axir? Hamma o‘tirganida sen osh-ovqat opkelasan. Keyin, ikki oyog‘ingni chapga bukib, odob bilan o‘tirasan, kim choy ichkisi kelsa, piyolaga yarim qilib quyasan, barmog‘ingni uchi bilan tutib, nazokat bilan uzatasan.

Agar kimdir choyni oxirigacha ichmasdan qaytib uzatsa, bildirmasdan to‘kasan, choy qoldig‘i ustiga yana choy quymaysan.

CHoy damlashniyam o‘z usullari bor, choynak ichi oppoq bo‘lishi kerak, qaynoq suv bilan chayib tashlab, keyin quruqchoy solasan. Albatta dam edirasan<sup>10</sup>.

Mazkur lavhada odatiy hol: milliy urf-odatlarimiz, sharqona rasm-rusmlar o‘ziga xos talqin qilingan bo‘lib, onalar o‘z farzandining tarbiyasida ajdodlardan o‘tib kelayotgan qadriyatlarni jilvalantiradi. Adib muhokamasi xarakter qirralarini anglashga yordam beradi. Muallif boshqaruvi bevosita talqin jozibadorligini yuzaga keltirishga zamin yaratadi. Aytish joiz, milliylik asarning jonu tani, usiz badiiy polotno ko‘rkamligi ko‘zga tashlanmaydi. SHunday ekan, talqin sayqallanishi ifoda mustaqilligiga yo‘l ochadi. Kuzatuv boshqaruv tarxida ideal tushunchalar assotsativdir.

Badiiylik – mudomi o‘z yangiligi bilan muhimdir. Unda olam va olam muammolari bir maromda harakatlanadi. Tuyg‘ular taqdirning timsolini chizishga qodir. Usiz hayot ko‘rimsiz va zerikarli. Mavjud tushunchalar ifoda imkoniyatlarini bir nuqtaga yig‘ishga hozir. Isajon Sulton muhim masalalarni oddiy so‘zlar yordamida, noan’anaviy talqinlarni o‘zbekona ruhda berishga intiladi. Bu xususiyat adib mahoratining nechog‘li yuksalayotganidan shahodat beradi. Bir necha o‘lchamlarda muhim sanalgan xulosalar o‘ziga yangi bir ifodani

---

<sup>10</sup> Кўрсатилган адабиёт, 56-бет.

qamrab oladi. Bu qissa syujet liniyalarini mustaqil bob va fasllarda yaxlitlashuviga zamin yaratadi.

Taniqli adabiyotshunos U.Normatov qayd etishicha: “Bugungi qissachiligimizga nazar tashlaganda birinchi galda undagi mavzu muammo, shakliy, uslubiy jihatdan rang-baranglik e’tiborni tortadi; ular orasida tarixiy, zamonaviy, ijtimoiy-siyosiy, oilaviy-maishiy, ishqiy mavzulardagi ham an’anaviy romantik, realistik, ham modernistik, ham jiddiy, ham yumoristik, sarguzasht-detektiv yo‘nalishdagi asarlarni ko‘rish mumkin, turli saviyada bo‘lishidan qat’i nazar rang-baranglikka ne etsin”<sup>11</sup>. Binobarin, munaqqid to‘g‘ri ta’kidlaganidek, mavjud ifoda xususiyatlarida I.Sultonning “Onaizorim” qissasidagi muammo va echim yodimizga keladi. Adib yangicha talqin qilishga intilgan voqelik mohiyatida o‘zbek ayollarining pinhon sirlari-yu, ularning boshiga tushgan sobiq ittifoq davridagi og‘ir mehnatlar evaziga hayot kechirganligi bular bolalik va yoshlik nihollarini tarbiya qilishda o‘ta mashaqqatlarni keltirib chiqargani oydinlashadi. Muallif asar zamirida aks etgan voqelikni yangicha talqin qilar ekan, bitta narsaga alohida to‘xtaladi. Ra’no – beg‘ubor va beozor qiz. Uning ulg‘ayishida ham g‘ayri tabiiy holatlar zohirdir. Chunki qizning orasta va ozoda bo‘lib ishlashga odatlanishida ota va onaning o‘rni kattadir, degim keladi.

Qissada bot-bot tilga olinayotgan ariqcha muhokama qa’tiga katta ma’no yuklaydi. Bu o‘z o‘rnida talqin yangiligini anglatadi. Adib o‘zi haqli ravishda e’tirof etganidek: “Tevaragimizda ro‘y berayotgan, bevosita guvoh bo‘layotganimiz hodisalar ortida yana minglab boshqa hodisalar bor. Ko‘rib turganimiz mutlaq haqiqat emas, u - yashirin va ilg‘ash qiyin haqiqatdir. Bizlar xuddi Tangriga qattiq ishongan, ammo o‘zining Tangri haqidagi tushunchalarini Tangri deb o‘ylab ulkan xato qilgan odam misolimiz. Ha, adabiyot uchun endi qibla qaysi tomonda? Olg‘a, yana bir qadam olg‘a, deb hayqiradi tafakkur. “Hovuzda Xudoyimning, aksini ko‘rgandayman. Bulutlar va baliqlar raqsini ko‘rgandayman,” deb ogohlantiradi elimizning yoniq iste’dodlaridan yana biri (Iqbol Mirzo misrasi). Bir himranib, shuuringni chirmab olgan o‘rgimchak to‘rini

---

<sup>11</sup> Normatov u. Умидбахш тамойиллар. –Т.: “Маънавият”. 2001. 47-бет.

yirtib, fikr va his ozodligiga chiqmaysanmi, u ozodlikning hayotbaxsh lazzatini bir totib koʻrmaysanmi, deb jahllanadi Rumi, bugunimizning bolalariga qarata. “Nima qilay axir” deb ozorlanadi ilmu fanning, olamning tahlikali oʻzgarishlaridan bexabar bugunning maʼrifatchisi, peshanasini tirishtirib”<sup>12</sup>. Mazkur lavhadan ham anglash mumkinki, adbining qissasida lirizm oʻziga xos ahamiyat kasb etgan. Buni quyidagi keltirilgan parchada ham kuzatish mumkin:

“Roʻzgʻor yupun, eb yotaversangiz togʻ ham chidamaydi, – dedi qaynona. – Hammaning keliniyu qizi dalaga oʻtoqqa chiqadi, er chopadi, mehnat qiladi. Biz ham shunaqa edik, mehnat oʻldirmagan odamni”. “Egan nonimni minnat qilyaptimi? – dedi ogʻrinib Raʼno. – YArimta non eymanmi-yoʻqmi? Eshigida bitta xizmatkori boʻlsayam mendan koʻra koʻproq non eydi”.

“Jon bolam, sabr qil, – dedi onaizori. – Otang bilmasin, koʻnaqol. Ular ham tuppa-tuzuk odam, hali oldinda qancha tashvishi bor, shunga kuyinadi-da, seni yomon koʻrarmidi? Joningni jinday koyitsang, bir nima boʻlib qolmaysan, koʻnaqol, bolam”.

“Xoʻp”, dedi.

Ketmonini koʻtarib dalaga chiqdi. Qarasa, oʻzi singarilar koʻp ekan. Hamma boshigayu ogʻziga oq roʻmol oʻrab olgan. Oyogʻiga etik kiydi, ogʻiz-burnini roʻmol bilan boyladi. Pahlavonini ikki tol orasidagi belanchakka yotqizdi, yaxshilab emizdi. SHu erdagi barvasta semiz xotinga “bolamga yaxshilab qarang, opajon, oyligim chiqsa, sizga yangi roʻmol olib beraman”, deya yalindi. Ortiga qaray-qaray, chopiqqa yoʻl oldi. Dalaning tuprogʻi och kulrang, kesaklari koʻp ekan. Oʻzi oʻrgangan ish emasmi, qiynalmadi. Issiq kuchayaverdi. Dala ustida qaldirgʻochlar aylana-aylana uchdi. Ancha-muncha xotin shu tariqa chopiq qilar edilar. Quyosh tikkaga kelay deganida koʻkragi iyidi. Qarasa, koʻylagining burmasi sutdan jiqqa hoʻl boʻlibdi<sup>13</sup>.

---

<sup>12</sup> Исажон Султон. “Мени ҳам туртиб қўй эрта уйғонсанг”// Жаннатмакон. 2012 й. 4 сон.

<sup>13</sup> Кўрсатилган адабиёт. 66-бет.

Ko‘rinadiki, qaynonaning zorlanishlari evaziga Ra‘no kelin bo‘lib tushgan uyining ish tutimlariga ko‘nmay iloji yo‘q. U farzandiga tuzukroq ovqat ham berolmaydi. Ertalabdan kechgacha qilgan harakatlari butun vujudini ayovsiz timdalaydi. Qizginaning boshiga bunday og‘ir mehnat tushgan holatga kim aybdor? Taqdirmi yoki tasodif? Baxtsizlik evaziga baxt keladi degan qarash qadimdan bor. Buning zamirida katta ma‘no mujassam. Qissaning mazkur lavhasida Ra‘noning mehribon onasining bergan maslahatlari “sabr qil” hikmati yodiga keladi. Ammo sabrni qachongacha qilish mumkin? Qahramon juda qiynaladi. Konflikt va dramatik lavhalarda inson ruhiy holati yanada tiniqlashadi. Unda xarakterni to‘laqonli ochib berishga imkon tug‘diradi. Qissada tarqoq konflikt yuzaga kelgan. Bu syujet voqeligiga sira rahna solmaydi. Bir butunlik zamirida adib muhokamasi yanada jonlantiriladi:

Ishini tashlab, ortiga yurdi. O‘sha erda hisobchi aylanib yurgan ekan. U o‘sha, Ra‘no damchi kampirnikiga qatnaganida yomon-yomon qaragan qora yuzli kishi bo‘lib chiqdi.

– Ha, qayoqqa? – dedi, bema‘ni iljayib.

– Bolam ochqab ketdi, – dedi Ra‘no, qovog‘ini solib.

– Hammaniyam bolasi ochqagan, – dedi hisobchi. – Qani, orqangga qaytib, ishingni qil-chi.

– Sen kim bo‘libsan? – dedi Ra‘no, birdaniga burgutday qanot yoyib.

- Bolam ochqadi demadimmi senga? Qoch yo‘limdan, yo‘qsa hozir ketmon bilan chopib tashlayman!

Hisobchi uning vajohatidan hayiqdi. Tavba, bu xotin jinnimi deya osmonga angrayib, bulutlarni tomosha qilayotganga soldi o‘zini.

Ra‘no chopa-chopa shiyponga bordi. Uzoqdanoq, go‘daklarning yig‘isi orasidan bolasining yig‘isini tanidi.

SHiypon tollari ostida u barvasta xotin ko‘rinmaydi. Belanchakka yaqin shoxchalarga qora qushlar qo‘nib, chag‘illab sayrashyapti. Bola qo‘rqibdi. Bolani qarovsiz qoldirsang, mayna kelib ko‘zini cho‘qib oladi degan gap esiga tushdi-yu, “Voy o‘lmasam”, deb elday uchdi. SHosha-pisha bolasini belanchakdan echib oldi.

Tagini ho‘l qilib qo‘yibdi, oyoqchalari qiyilib ketibdi. Bola onasini tanib, battar yig‘lab talpindi, Ra‘no unga ko‘krak tutdi-da, ichidagi to‘fon kabi chirpirak qilayotgan tashvish, xavotir, yana allanimalarning bari erib yo‘qolgani, yana shu ajoyib oromga erishganidan ko‘ngli to‘lib, piqillab yig‘lab yubordi.

Bola to‘ydi. Ra‘no uni belanchagiga yotqizib, chirillab yig‘layotgan boshqa bolani qo‘liga oldi. Bir qo‘liga unisini, bir qo‘liga bunisini. Ikkoviga ham ko‘krak tutdi. Ochqagan bolalar begonasirashmadi, miq-miq emib olishdi<sup>14</sup>.

Ko‘rinadiki, hisobchi ham o‘z manfaati borasida bo‘lmag‘ur ishlarni ham qilishga tayyor. Uning qalbiga tushgan ozordan hisobchi ham hayiqmaydi. Bu Ra‘noning yanada jahlini chiqarib yuboradi. “CHopib tashlayman” birikmasida qahramon qarashlari ishonarli tasdig‘ini topgan. Ra‘noning mashaqqatli hayoti unda hayotga katta nigoh tashlashna o‘rgatib qo‘yadi.

---

<sup>14</sup> Kўrsatilgan адабиёт. 69-бет.

## II-BOB. QISSADA FOLKLOR AN'ANALARI VA O'ZIGA XOSLIK

Adabiyot - so'z san'ati. U inson ruhining inkosi, insonni tasvirlash, insonligini ko'rsatishga xizmat qiladi. "Odam bolasi shu qadar aziz va mukarram, ulug'-u muhtaram qilib yaratilgan-ki, o'n sakkiz ming olamdagi hatsiz-hisobsiz farishtalar unga muttasil takbir-u tahsin, olqish-u ofarin aytadi. Tasavvur qilayapsizmi, Oллоh taolo hazrati Odamni naqadar ulug'vor o'zligiga mos va muvofiq cheksiz qudratiga yarashadigan mo'jizaviy xilqat qilib yaratgan".<sup>15</sup>

Darhaqiqat, bu tushunchalar zamirida hayot haqiqati yotadi, chunki Oллоh insonni ongli mavjudot qilib yaratdi. Boshqa mahluqotlarga ravo ko'rilmagan cheksiz imkoniyat tafakkur baxti, fikrlash saodatini inom etgan. Shu bilan bir qatorda insonga xotira iroda, idrok va yuksak insoniy tuyg'ular hadya qilgan. Unga odam va olamni sevish, do'stlik va sadoqat, mehr, shavqat, insof, qadr-qimmat kabi his etish tuyg'ularini hadya etganki, buning o'ziyoq insonni oliy hilqat ekanligidan dalolat beradi. Ana shunday xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan inson Yaratganga shak keltira boshladi. Bu kabi tushunchalar qadimgi sharq falsafasida yetakchilik qilgan. O'z ruhining bir qismini odamga bag'ishlab, uni oddiygina jonzot emas, hazrati inson qilib yaratgan. Qadimdan sharq falsafasida chor darvesh bilan bir qatorda eng ko'p qo'llaniluvchi unsurlar havo, tuproq, suv, olov moddiy olamdagi eng bebaho hech qachon pul bilan o'lchab bo'lmaydigan qadriyat hisoblanadi. Tuproq boshqa unsurlarga nisbatan qadrliroq hisoblangan. Chunki odam bolasi tuproqdan bino etilgan uning qadri baland, borar manzili abadiyatdir. Shuning uchun "Tuproq bo'lg'il olam sening seni bosib o'tsin", –deb yozadi Ahmad Yassaviy. Bu dunyoda hamma narsaning o'z o'lchovi bo'lganidek insonlikning, jo'mradlikning ham o'ziga xos tomonlari mavjud. Insonning g'ururi, insoniyligi, uning haqiqatga intilishi bilan ajralib turadi. Bugun shunday davrda yashayapmizki go'yo hamma narsani bunyod qilish mumkindek. Faqat Oллоh yaratgan mavjudotni, hilqatni ham qayta yaratish mumkindek, inson harakat qilmoqda ammo ba'zan bu harakatlarning mahsuli bo'lgan ko'plab vositalar oldida

---

<sup>15</sup> Отаули. Рухий кадрият. Мустақиллик даври адабиёти. –Тошкент, 2006. 172-бет.



insonning o‘zi ojiz qolmoqda. U ojizlik sirlarini hali anglab ulgurmagan. Buning sabablarini qidirib topish nafaqat insoniyatning balki san‘at asarlarining muammosi ham bo‘lib qolmoqda. Chunki bugungi davr kishisi obrazini aks ettirishda so‘z san‘atkori ko‘proq falsafiylikka urg‘u bermoqda. To‘g‘ri har bir davr o‘z qahramonlarini yaratgani kabi bugungi davr adabiyoti ham insonni yanada teranroq aks ettirishga intilmoqda. Ayni chog‘da bugungi rivojlanish bosqichida inson xarakteridagi murakkabliklarini bunga bog‘liq ravishda turlanib borayotgan inson qalbi tovlanishlarini ham o‘quvchiga ko‘rsatib bermoqda. Insoniyat bugungi kunda axborot asri deb atalmish o‘ta chigal bir olamga kirib keldiki, unga o‘ralib qolgan insonda turfa xil savollar vujudga keldi. Bugungi kun shaxsi juda injiq, tezkor va beshafqat tarzda voyaga yetmoqda. Unga yuz yilliklarning bag‘ridagi sentamintalligi ko‘ngilchanligi, adolatparvarligi, sadoqatliligi ancha yot bo‘lib qolmoqda. Haqiqatning ko‘ziga mana shu xususiyat bilan qaraydigan bo‘lsak ijodkor tuyg‘udan yorug‘lik tezligida uzoqlashib bormoqda: “Endi uning yuragi xuddi axborot asriga o‘xshab nafas ola boshladi, bozori kosod bo‘lgan tuyg‘u “ishlab chiqarish”ni to‘xtatib o‘zi vassal bo‘lgan aql chirmandasini o‘ylashga tushdi... Sababi, ana o‘sha axborot asri modernnoma adabiyotni tushunadigan o‘quvchini shakllantirib ulgurdi”.<sup>16</sup>

Qissaning kompozitsion tuzilishida – folklor an‘analarga murojaat etilgan. Tasvir mantig‘ida xalq eposlaridagi juvonmardlik, qahramonlik, olijanoblik, insoniylikka esh bo‘ladigan jamiki fazilatlar butun-murakkabligicha talqin qilinadi. Bir qarashda ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi mangu kurash – ertak o‘qiyotgandek bo‘lasiz. Lekin damo-dam Ra‘no taqdiri real hayot bilan payvandlanishi voqealarni tipiklashtiradi. Adib Ra‘no timsolini gavdalantirar ekan, qizchanning har bir xatti-harakatlarida ajib o‘zgarishlarni, barkamollik kasb etib ulg‘ayayotganidan shahodat beradi. Adib qissada folklor an‘analarga murojaat qilishda undan syujetni harakatga keltiruvchi kuch sifatida emas, milliy nasr an‘analarini bardavomiyligini ta‘minlashni fenomen darajasiga ko‘tarmoqchi ekanligi ayonlashadi. **“Chimchilovchi g‘alati maxluq”, “Ayyor malla tulkicha”** kabi fasllarda mazkur

---

<sup>16</sup> Хамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи. –Тошкент. “Фан”, 2007. 91-92-бетлар.

xususiyat ko‘zga tashlanadi. Qissa voqealari real hayot bilan juda ham mutanosib, ammo epizodik lavhalar Ra’no timsoliga o‘ziga xos vazifani yuklaydi. Buni quyidagi tasvirda ham ko‘rish mumkin:

*“Shulardan biri – g‘oyat uzun bo‘yli, bahaybat, butun vujudi yaltirab, ko‘zlarining soqqasi tinmay aylanib turadigan chimchilovchi g‘alati maxluq bo‘lib, hamma uxlagan, oy havolagan mahalda tomorqalar orasidan sezdirmay chiqib kelar, mabodo hech kim sezmasa, o‘yib-chimchilab olishi mumkin edi. Paydo bo‘lar makoniyu g‘oyib bo‘lar joyi ham noaniq, qilar ishi faqat Ra’noni ko‘rqitishdangina iborat bu maxluq qayda yashashiniyu nima eb-ichishini ham bilib bo‘lmasdi. Ayvonda yotganida, oy yog‘dusi nurli chang singari tevarakni enlab, sokinlikka cho‘mdirgan mahalda daraxtlaru jo‘xorizorlar orasidan chiqib kelaverardi. U maxluqni faqatgina Ra’no bilardi, xolos, birovga aytsa kulgiga qolishini o‘ylab indamasdi. Aslida u maxluq Ra’noning tasavvuridagina bor edi, biroq, qay tarzdadir paydo bo‘lib, tepasiga kelib o‘yib-chimchilab olishidan qo‘rqardi-da. O‘ylab qarasa, shu mahalgacha u maxluq biror so‘z aytmabdi, qilar ishi vahima uyg‘otish bo‘libdi, xolos.”*

Ayonki, mifik tasavvurlar inson iroda yo‘nalishini doim g‘alati holatga solishi tayin. Chunki inson tasavvuridagi qahramonlari – vahm va qo‘rquv bostirib kelganidagi yuzaga chiqqan ong osti oqimlari (kechinmalari) zamirida o‘zida boshqa bir xususiyatni anglagandek bo‘ladi. Aslida, mifik tasavvurlar mohiyatida ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi mangu kurash akslansa, oqibatda mudomi ezgulikning muvaffaqiyat qozonishi bilan yakun topadi. Ra’no ham o‘z tabiatidagi ajib evirilishlarni onasidan eshitgan ertak va hikoyatlarida uchraydigan qahramonlarga mengzab ko‘rishida yuzaga chiqadi. Qissada **parilar**, **devlar**, **tulkilar**, **mushuklar** singari mifologik obrazlarning kiritilishi syujetni yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlagan.

Yana bir lavhaga diqqat qarataylik:

*“Shunaqa qo‘rqinchli jonzotlardan yana biri ayyor malla tulki bo‘lib, kishilarning gapiga qaraganda, ekinzorlar va daraxtlar orasida payt poylab yashirinib yotar, yosh bolalar uyda yolg‘iz qolgan mahalida tepasiga kelib*

*qitiqlar, kuldira-kuldira o'ldirar ekan. Uniyam yashash joyi va nimalar bilan mashg'ulligi noma'lum edi. Bepoyon tomorqazorlar aro ba'zan yolg'iz yurganida, qo'ralar va jingullar orasidan o'sha tulki chiqib kelishidan qo'rqib yurdi. Bir kuni baland o'sgan, barglari sarg'aya boshlagan jo'xorilar orasidagi yo'lakdan borayotsa, poyalar qattiq shitirlab, bir nima otilib chiqib kelganida qo'rqqanidan joyida serrayib qotib qoldi. Jajji yurakchasi qinidan chiqquday duk-duk urar, yuzlari muzlab ketganday edi. Qarasa, shu atrofda sanqib yuradigan daydi mushuk ekan. Mushuk ham ro'parasidagi qizchaga angrayib qarab turaverdi."*

Qissa arxitektonikasida mazkur epizodik lavhada bola tasavvurining shakllanishida, ulg'ayishida to'qib chiqarilgan mifik tasavvurlar yig'indisi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, adib tomonidan janr mohiyatiga mahorat bilan singdirilgan monologik nutq tabiati qahramon intellektini namoyon qilishga qaratilgan.

Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan bolaparvar, bolajon xalq. Ota onasining bag'rida tabiat bilan tillashib, katta bo'layotgan, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan bola qalbida mudomi ezgulik qoim. Chunki ota – oilaning yo'l boshchisi. Otaning o'rni shuning uchun ham o'ziga xos. Adib qissada juda katta umuminsoniy muammolarni bir oila, qishloq hayoti timsolida tipiklashtirishga erishgan. Ya'nikim, evirilayotgan dunyoda so'z qiymati, ota ona qadri, milliy qadriyatlarni ko'z qorachig'iday avaylab saqlashga bo'lgan intilishlar nafis tasvirlarda yuzaga chiqqan. Bir murg'akning kamol topishiga ota va onaning qanchalik mas'ul ekanligi, farzandning baxtu kamoli uchun jonini jabborga berib, tunu kun beminnat xizmat qilishi, Vatan oldidagi burchini sadoqat bilan bajarishi har birimizni albatta, o'ylashga, fikrlashga undaydi. Zotan, qissa mavzu-mundarijasida Onaizor qismati azim folkloristik an'analarga yaxlit tarzda inkishof qilingan. Mif va asotirlar qissada xarakterni individuallashtirishgina emas, voqealarning yanada qiziqarli bo'lishi uchun ham kiritilgan.

— Ha, ariqcha, oqyapsanmi?

— Oqyapman.

— Bugun ukam o'lib qoldi.

— Voy, nima bo'ldi?

— Bilmadim... Qo‘rqib ketyapman, ariqcha.

— Qo‘rqma...

— YAxshi bolacha edi... Qo‘lchalarini o‘ynatib, chug‘urlab yotaredi. Iljayib turib, chuvillatib siyib ham qo‘yardi...

— Ha, ukang yaxshi bola edi.

— Onam nima qiladi endi?

— Bechoraga qiyin bo‘pti.

— YUpataman deb, “Onajon, xafa bo‘lmang, yana bitta ukacha tug‘ib olasiz” desam, rosa yig‘ladi.

— Endi sen unga mador bo‘l, xayolini chalg‘it.

— Otam-chi?

— Otang nima qilyapti?

— U ham yig‘layapti. Ammo onamga o‘xshab emas. Tomorqalarni aylanib yuradi-da, keyin boshini daraxtlarga, guvalak devorlarga urib-urib yig‘laydi”<sup>17</sup>.

Mifik tasavvurlar qahramon qalbiga yanada g‘ayritabiy hodisalarni solib qo‘yadi. U ariqchadan ko‘p narsani so‘raydi. Bu umrning ramzi bo‘lib, unda milliy an‘analar aks ettiriladi. Adib bu o‘rinda ma‘noni yanada ko‘chaytiradi. Bir insonning olamdan o‘tishi – hayot to‘xtovsiz harakat ekanligini isbotlayotgandek. CHunonchi, bu xususiyat milliy qahramon favqulodda g‘ayritabiiylik botiniga teranroq kirib borishi uchun kalit vazifasini o‘taydi. Bilamizki, muhim qirralarni aniqlashtirish uchun adib “ariqcha”ga murojaat qilmoqda. YA’ni unda maqsad bir butun hodisaga evirilib bormoqda.

Adib folklor an‘analarni o‘ziga xos tarzda tasvirlashga harakat qilganki, unda turli xil jonzotlarni jonlantirishga erishgan. YA’ni qissada bosh qahramon Ra’noning ko‘ngliga vahima soli turadigan g‘alati mahluqchalar bor. Adib ana shularni mahorat bilan tasvirlaydi.

“Kichkina sariq qizcha” nomli faslida mazkur misollarni kuzatish mumkin:

U qizchaning mavjudligini Ra’no o‘rtog‘idan bilib oldi.

---

<sup>17</sup> Kўрсатилган адабиёт. 48-бет.

Sariq Qizcha daraxtlarning shoxlarida, qalin va g'uj o'sgan qarovsiz jingulzorlarda oyoqchasini osiltirib o'tirar, aytishlaricha, pichoq va qalampirdan juda qo'rqar, mabodo yolg'iz bolalarga duch kelsa, boshini aylantirib uzoq dalayu yaylovlarga adashtirgani olib ketardi.

Ra'no mana shulardan qo'rqardi.

Kechalari ba'zan o'rnidan turib, uyqusiraganicha borib otasining bag'riga kirib ketar edi. Ota bag'ri ulkan, tinch va osoyishta, u bag'irda ta'rifsiz tinchlik va farog'at qo'yniga cho'mar, sal o'tmay pishillab uxlab qolar, uyqudan uyg'onganida esa o'zini o'z joyida ko'rar, shunda ota, u uxlab qolgach, avaylab ko'tarib o'rniga olib ketib yotqizganiga aqli etardi. Otasini shuning uchun ham yaxshi ko'rardi, yo'qsa ota u bilan juda kam gaplashardi, chunki ishidan kech kelardi. Ammo kelganida qizginaning qalbi quvonchgato'lib ketardi, shuni onasiga ham, otasiga ham aytolmasdi-da. SHamollarda, yomg'irlarda ona javray-javray supra yoyib, xamir qorar, bir yoqda uka chirillab yig'lab, bir yonda ona yumushlariga ulgurolmay sannaganida, onamga yordam beraqolay deb chopib borib kichkina mushtchalari bilan xamir qorarkan, tezroq otam kelaqolsaydi deb orzu ham qilar edi. Ajabki, mana shunday paytlarda ota kirib kelsa, hamma narsa o'z o'rniga tushar, ishlar o'z-o'zidan engil bitar, otam qanday zo'r-a degan o'y murg'ak diliga quvonch baxsh etardi, "Otam hammadan zo'r" deya Xosiyatga maqtanar ham edi".

Darhaqiqat, istiqlol davri adabiyoti shaxsni o'zlikni anglash yo'lidagi turfa xil holatlarni ramziy, majoziy, tasvir orqali aks ettirmoqda. Istiqlolga erishganimizdan keyin yaratilgan ko'pgina asarlardan oliy rutbaga ko'tarilgan, dunyo yaralishining sababi, adoqsiz ilohiy nur bilan yo'g'rilgan inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni asar sujetiga singdirdi. Bu davr adabiyoti mavzu nuqtai nazaridan ham, badiiy tasvir tamoyillari jihatidan ham biror qolipga solinmagan, tabiiy ravishda taraqqiy qilayotgan estetik hodisa sifatida namoyon bo'ldi. Bu esa badiiy adabiyot uchun hayot haqiqatini ko'rsatish bilan bir qatorda inson ruhiy olamidagi ma'naviy evrilishlarni, turfa xil ziddiyatli holatlarni tasvirladi. Insonni har tomonlama talqin etar ekan, har xil insonni xilma – xil yo'sinda badiiy tadqiq etish

mumkin ekanligi asoslandi. Odamni faqat mehnat jarayonida emas, balki boshqa turfa xil holatlarda ko`rish va ko`rsatish imkoni borligi natijasida sodir bo`lmoqda.

Adabiyotshunos Qozoqboy Yo`ldoshev «Yoniq so`z» asarida quyidagi fikrlarni qayd qilgan: «Ayrim tanqidchilar, adiblar bizning adabiyotimizda syurialistik, postmodernistik, absurt yohud o`zga bir oqim belgilari yetishmayotganidan, ularning sekin o`zlashtirilayotganidan kuyinsa, bu adabiyotimizda kunbotar motivlari kamligidan emas, balki badiiy tafakkurimizning umumjahon badiiyati jarayonini o`zlashtirshda asossiz ravishda ortda qolayotganidan qayg`urayotir deb anglash kerak. Bizning adabiyotimizda haligacha inson, uning o`ylari, o`ta murakkab va nomsiz tuyg`ulari emas, mehnat natijalari, g`oyaviy qarashlari hamda kurashlari asosiy ko`rsatkich bo`lib turganiga e`tibor qaratmoq zarur. O`sha g`alati, bizga singishmayotgan, bizga mutlaqo begonadek ko`ringan, lekin so`fiyona adabiyot sahifalaridan ko`plab muqobillarini topish mumkin».

Istiqlol adabiyoti xilma – xil, turfa xil ohangdagi badiiy asarlarni maydonga keltirdi. Unda turli tuman ijobiy tajribalar qilish, turli “izm” lar izidan bora olish imkoniyati mavjudligi namoyon bo`ldi. Bu davr adabiyoti tipik odamni emas, balki alohida o`ziga xos va betakror odamni – tipni tasvir etmoqda. O`quvchi hammaga o`xshamagan, alohida odamni tushunish mobaynida o`zgani anglay boshladi. Bu esa o`zini tushunish sari qo`yilgan ilk qadamlardan biridir. Har bir shaxs yaratgan Allohni o`zini tushungan darajadagina taniydi. Badiiy adabiyotni ham kitobxon o`z tafakkur nuqtai nazaridan baholaydi va bu haqida so`z yuritadi. Istiqlol davri adabiyoti munosabatlar adabiyotiga, tuyg`ular, kechinmalar adabiyotiga aylanib bormoqda. Adabiyot davlatning emas, millatning ishi bo`lib qoldi. Adiblarning oldida badiiy tajribalar qilish, estetik maktablar yaratish, turli yo`nalishlarda ijod etish erkinligi paydo bo`ldi. Bu davr adabiyotida inson ruhiyati qatlamlarini badiiy tadqiq etuvchi, tekshiruvchi adabiyotga aylanib borayotganligi ham bu fikrlarni asoslaydi. Bu yo`nalishda ijod qilayotgan, ruhiy to`lg`anishlari, hissiy kechinmalar tadqiqi bilan shug`ullanayotgan insonning o`zini, botiniy olamidagi ziddiyatlarni aks ettirish an`anasi ham yetakchilik qilmoqda:

“Qiz tushmagur, ko‘ylaging darrov kalta bo‘pqopti, o‘saverasanmi?” deya hazilomuz koyiydigan bo‘ldi uni onasi.

Gapiradigan qushlaru daraxtlar Ra‘noni allaqachon qiziqitirmay qo‘ygan, endi u hodisalar o‘zining tasavvuri tufayli shunday tuyulganini bilardi. Behi ham gapirmas, ammo u bilan suhbatlashganlari Ra‘noning esida edi albatta. SHoxchasiga chiqib olib, shirindan-shirin mevalarini egani uchun o‘zicha minnatdor ham bo‘lgan edi. Paxta behi deb atardi uni Ra‘no, chunki mevasining sirti tekis yiltiroq bu nav suvli va juda mazali bo‘lib, nariroqdagisi tosh behi, qizig‘i shundaki, u Ra‘nolarning behisi emas, qo‘shniniki bo‘lib, bolalar shoxlariga chiqib mevalarini eyishsa ham u lom-mim demas, jilmayibgina qo‘yar edi. “Mevali daraxtning qo‘shni tomonga egilgan shoxi – qo‘shniniki”, der edilar.

Bolaligida Ra‘noni qo‘rqitgan narsalar ham uzoqlashgan, jo‘nlashgan, jingul shoxlaridagi ajinachalar allaqachon o‘zlari chiqib kelgan xayoliy makonlarga jo‘nab ketishgan, bir mahallar qo‘rqanlarini eslasa, uyalar ham edi. Ajabki, u xayoliy maxluqlar biron marta ham zarar etkazmabdi, ya‘ni u, o‘zi o‘ylab chiqargan narsalaridan o‘zi qo‘rqibdi, xolos. Qilich ko‘targan qora kishi, o‘rama to‘fonlar, ajinaning uyi va shunga o‘xshash bolalik tasavvuri hosilalarining bari sezilar-sezilmas oddiylashib, jo‘nlashib, olislashib... borar edi...”<sup>18</sup>.

Qissa poetikasida folklor an‘analari dostonlarga xos xususiyatlar ajib jilvalarda aks ettirilganki, unda maishiy muammolar xuddi umuminsoniylik kasb etishiga qaratiladi. Bir tomonda bu o‘ziga xos uslubiy manera hamdir. Mavjud andozalar qissa tabiatini aniqlashga yordam beradi. Keltirilgan lavhada ushbu Ra‘noning yoshlik davridagi mifik tasavvurlari o‘zgarib borishi, ular sohir yoshlikning qaytmas lahzalaridek taassurot uyg‘otadi. Chunki qahramon o‘y-xayollarini tushuncha tadrijida aniqlash mumkin.

Darhaqiqat, Isajon Sulton qissalarida ham badiiy – estetik talqinni o‘ziga xos tarzda aks ettirilganligini kuzatamiz. Inson ruhiy olamini badiiy idrok etishning yangicha o‘ziga xos talqini sifatida qayd etilmoqda. Adib qissalarida polifonik tasvir, ya‘ni ko‘p qirralilik, ko‘p timsollilik, ko‘p ovozlilik roman janrining yangi

---

<sup>18</sup> Кўрсатилган адабиёт. 46-бет.

badiiy imkoniyatlari hamda insonning murakkab tabiatini badiiy talqin etish bilan izohlanmoqda. Polifonik badiiy talqin zamirida ko`p qatlamlilik, ko`p ovozlilik, ko`p ma`nolilik inson obrazini mukammalroq ochib berishga xizmat qilar ekan, tabiiyki, badiiy polifoniya nafaqat inson hayotining murakkabligini, balki qissa janr imkoniyatlarini ham kengroq namoyon qiladi. Keying davr romanchiligiga xos bo`lgan bunday tasvir usuli jahon qissachilik an`analari va ijodiy imkoniyatlari ta`sirida taraqqiy etar ekan. Umumbashariy g`oyalar talqinida eng murakkab va mukammal badiiy talqin uslublarga murojaat etadi. Polifonik qissada sujet va kompozitsiya qurilishi, badiiy qahramon va unga nisbatan muallif munosabati, qissada g`oya talqini, muallif obrazi kabi badiiy unsurlarga an`anaviy qissalarga nisbatan o`ziga xos tarzda farqlanishi kuzatilmoqda:

“– Mehmon duo qiladi. Duo ko`zga ko`rinmas shaklda ko`k toqiga ko`tariladi. Farishtalar ham duo qiladilar. O`sha erda katta bir xazina hosil bo`ladi. Bir kuni o`sha erga borganingda xazinangni ko`rasan. SHirin taomingni bir o`zing pishirib esang maza qilasan, ammo qanchadir vaqt o`tib, yana qorning ochqaydi. Mehmonga berganing o`zingniki, eganing erniki, bolam.

Ra`no bu gapga chippa-chin ishondi, boz ustiga, ona aytdimi, demak, albatta rioya qilish kerak. Kerakmasday yoki hatto zararliday tuyulayotgan qancha narsalar bor, ularni Ra`no faqat ona aytgani uchungina bajarardi-ku? Masalan, har kuni tong saharda turib, ko`cha supurishni kimga keragi bor? Ko`cha chinniday qilib supurilishi, keyin suv ham sepilishi kerak, toki saharlab ko`chadan o`tgan kishilar duo qilib alqab ketsinlar. Supurindini tandirga tashlash kerak, xas-cho`plar shunda yonib kulga aylanadi. U kulni olib idish-tovoq yuvishga ishlatsa ham bo`laveradi.

Tomorqa ishlari ham birday davom etardi. YAna dala tozalash, g`irillab esgan shabadalar, chayqalgan teraklar, quruqshagan poyalar”.<sup>19</sup>

Odam anglash qobiliyati sabab olamining sarvari darajasiga ko`tarildi. Chunki hayot hodisalarini, o`z fikr-u tuyg`ularini, o`zgalarning o`y-u xayollarini anglab yetish kishini Yaratganni anglash sari olib boradi. «Anglash» tushunchasi

---

<sup>19</sup> Кўрсатилган асар, 48-бет.



zamidra bilishdan tashqari to'yish holati ham mavjud. Inson hissiy – intellektual faoliyatining oliy ko'inishi bo'lmish san'at hodisalariga tatbiqan ham anglash so'zini burilishlar sababli hayot kechirish, fikrlash va sezimlar tarzida ro'y berayotgan shiddatli o'zgarishlar ruhiga moslashish uchun bugunning odami o'zini ancha zo'riqtirishi lozim bo'ladi. O'zlik sari eltuvchi uzun yo'lni bosib o'tish hech mahal oson bo'lmagan.

Fikr va ruhning yangilanishi estetik qarashlarning ham tozarishga olib keladi. Insoniyatning zavqi o'zgarishi bilan azaldan o'ziga xos bo'lishga intilib kelgan ijodkorlar badiiy asar doimo undan oldin yaratilganiga o'xshamaslikka intilish natijasi o'laroq paydo bo'ladi. Fikr, zavq va didning yangilanishi badiiy ifoda tizimini ham to'la o'zgartirishga ham taqozo etadi. Adabiyotda o'zgarishlarning doimiyligidan boshqa o'zgarmas narsa yo'qdir. An'analarga emas, o'zgarishlar doimiyligiga tayangan modern adabiyoti inson didi va qarashlaridagi o'zgarishlar ifodasi tarzida yuzaga keldi.

Qissa janri tarkibidagi o'zgarishlar turfa xil adabiy yo'nalishlar, muayyan yo'nalishga xizmat qiluvchi adabiy oqimlar, tabiiyki, roman poetikasiga ham yangi yangi uslub o'zgarishlarni olib kirdi. Roman jamiyat badiiy – estetik tafakkuri inikosi bo'lgani sababli ham romanda tafakkur mantiqi poetika talqinida psixologik va falsafiy munosabatlar izchillashuviga ijobiy ta'sir qilgani uchun roman poetikasining mukammal tahlili vujudga keldi.

Adabiyotshunos A.Rasulov "Akslar falsafasi" maqolasida quydaigi fikrlarni qayd qiladi: "Shakllar, qiyofalar, g'oyalar va obrazlar yaratilar ekan, tobora shiddatli tus olib borayotgan zamonaviy dunyo yana yangi ruhiy tayanvchga ehtiyoj tuya boshlagan edi. Badiiy asar xayol mahsuli, xayol esa kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea va hodisalarni oldindan jonlantirib ko'rish deganidir".<sup>10</sup>

Keyingi yillar qissachiligida inson tafakkuridagi evrilishlarni, hayotga yanada teranroq munosabatda bo'lishni, odam va olam haqidagi qarashlarni falsafiy tarzda aks

---

<sup>10</sup> A. Rasulov. Akslar falsafasi. Qarang: Isajon Sulton. Ozod. "Sharq", - Toshkent, 2012. 406-bet.

ettirish yetakchilik qila boshladi. Asar syujetidan o`rin olgan voqealar sil – silasida qahramonning ma`naviy olamini yoritilishi yetakchilik qiladi. Asardagi Ra`noning bolalik xotiralariga qaytishi ham bejiz emas. O`z o`tmishiga nazar solgan qahramon tafakkurdagi ziddiyatlarni yanada teranroq his eta boshlaydi.

”Munojot” qissasida qayd qilingan bu tasvirlar ”Onaizorim” qissasidagi qahramon tasviriga o`xshab ketadi, ammo ular taqdiri bir – birini to`ldirib, hayot mantig`ini anglash jarayonidagi mulohazalari mohiyatan farq qiladi. Shuning uchun har ikki romandagi tasvirlar turli ramzlar orqali aks ettirilganligini kuzatamiz.

Qissada Ra`no tiynatiga badiiy chizgilar berar ekan, u har bir narsa-hodisani diqqat bilan kuzatadi. O`ziga qunt bilan «narsa-hodisalar» tilini singdira boradi. Ming yillardan buyon misqollab yig`ilib kelayotgan - madaniy-ma`rifiy xazinamiz tom ma`noda millat kishisida boshqacha ahamiyat kasb etishi, bu o`rinda son-sanoqsiz nanotexnologiyalar qarshisida esankirab qolgan «zamondosh inson» botinini timdalayotgan og`riqlarni ichki «qayg`urish» bilan his etadi adib. Chunki «Onaizorim» qissada yozilgan barcha hikoyatlar, metarivoyatlar, kuzatishlar, aynan, shu jihatlarni o`zida jamuljam qiladi. Unib-o`sib kelayotgan, shakllanayotgan avlodni globallashuv changalidan qo`riqlash, ularga to`g`ri yo`l ko`rsatish» zarurligiga ishora qilinadi. Asar sujetidan o`rin olgan turfa xil ramzlar xarakterlarning shakllanishiga xizmat qilsada, asar sujetini asosida polifonik tasvir yetakchilik qilishini angalaymiz. Ijodkor bu tasvir usulidan inson ma`naviy olamini odam va olam o`rtasidagi dialektik birlikni mantiqiy bog`lash uchun foydalanganligini kuzatamiz:

– Boqqa kirsam, bir olma rosa qizarib pishibdi, – dedi ona kulib. – Bozorga olib chiqib sotib yuboraqolsammikin?

Haqiqatan ham bog`ning olmasi bir tarafi taram-taram qizg`ish, boshqa tarafi och-yashil bo`lib etilgan, yaqiniga borsa, boshni aylantirar shirin isiyam gurkirab turardi.

Ra`no endi aytilgan gapning tagida boshqa gap bo`lishini bilib olgan edi.

– Sotib nima qilasiz, – dedi g`ashi kelib. – Zarari tegyaptimi, bechorani?

– Voy, nimaga zarari tegar ekan? – dedi ona. – Meva etilsa, uzib egasiga berasan-da! Erga to`p etib tushsinmi bo`lmasa.

– Tushsa tushaversin, – dedi Ra’no, zarda qilib.

– Qo‘yarmidim? – deb kuldi ona. – Xalqni ko‘ziga katta to‘y qilamiz hali.

– Xalqingiz bilan nima ishim bor? – deya lab burdi Ra’no.

– Bekor aytibsan, bilsang, boring ham, yo‘g‘ing ham shu el, – dedi ona.

SHu el senga qiymat bersa, qadring oshadi, qiymat bermasa, moxovdan battar bo‘lib qolasan»<sup>20</sup>.

Bugungi qissachiligimiz taraqqiyotida tuyg`ular realizmi va ramzlar falsafasi yetakchilik qiladi. Oldingi davr qissalardan farqli o`laroq hayotni, insonni, tuyg`ulari kechinmalarini turli xil ohanglarda, tasvir vositalari asosida yoritilayotganligini kuzatamiz. Bundan bir necha yillar ilgari sotsiologik tahlil yetakchilik qilgan bo`lsa, bugunga kelib hayotni va insonni falsafiy – psixologik, ramziy – majoziy tushunish hamda tushuntirish badiiy adabiyotda yetakchilik qilmoqda. Buning natijasida iste’dodi yuksak adiblar o`z asarlarida davrning ma’naviy qiyofasini yaqqolroq aks ettirmoqda. Bu esa asar qahramonlarning xarakter xususiyatlari orqali yoritiladi. Shuning uchun adabiyotshunos olim H. Umurov shunday yozadi: «Xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi omildir».<sup>24</sup> Darhaqiqat, yuqorigi mulohazalardan kelib chiqib qissadagi folklor an’analarining badiiy in’kosini o‘ziga xos tarzda chizishga erishgan deyish mumkin. Negaki, adib muhokamada o‘ziga xos talqinni keltirib o‘tadi. Folklor an’analar deganda odamzod bitta mohiyatni aniqlashga harakat qilishi ishonarli tasvirlangan. Chunki unda muhim jihatlardan biri: odamzod mudomi ezgulikka talpinish, uning bilan birga bo‘lishga harakat qilishga intilishi aniq tasvirlarda ko‘zga tashlanadi. Ra’no mohiyatga qiziqadi. Uning bolalik tasavvurlariga ariqcha oydinlik kiritib boradi. Adib bu o‘rinda postmodernistik talqinlarni ham kiritib yuborishga harakat qilgan deyish mumkin.

---

<sup>20</sup> Kўrsatilgan asar. 55-бет.

<sup>24</sup> H. Umurov. Adabiyot nazaryasi. – Toshkent, “Sharq”, 2002. 38-bet.

### III-BOB. QISSADA BADIY TIL MASALASI

Jamiyatda yashayotgan shaxs (jumladan, ijodkor ham) ma'lum bir ijtimoiy guruh vakili, demak, o'zining muayyan ijtimoiy muhitda shakllangan qarashlari, orzu-intilishlariga egaki, bular shu guruhning qarashlari, orzu-intilishlariga ko'p jihatdan mos. Shunga qaramay, ijodkor birinchi galda shaxs, shu bois ham asar mazmunida shaxsiylangan ijtimoiylik aks etadi, shaxsiylik va ijtimoiylik uyg'un mujassamlashadi. Aksincha yo'ldan borilsa, ya'ni, ijodkor shaxsi ijtimoiylikda singib yo'qolsa - ijodiylik yo'qoladi, bu holda ijod ham, badiiyat hodisasi ham mavjud emas. Negaki, bu holda yozuvchi voqyelikni tayyor qoliplar asosida ko'radi, o'sha qoliplar asosida tasvirlaydi va baholaydi - sxematizm yuzaga keladi. Sirasi, kompyuter texnikasi yuksak rivojlangan bizning zamonamizda, ehtimol, bunday sxematik asarni dasturiy jihatdan yaxshi ta'minlangan kompyuter ham yozishi mumkin. Sho'ro davri adabiyotining fojiasi ayni shunda – ijodkor shaxsining ijtimoiylikda singib yo'qolib ketganida edi.

Badiiy ijod dunyoqarash bilan bog'liq tarzda kechadi. Dunyoqarash deganda konkret insonning dunyo haqidagi bilimlari, tushunchalari, g'oyalarini tushunamiz. Badiiy asarda akslangan badiiy voqyelik ijodkor tomonidan ko'rilgan ijodiy qayta ishlangan va g'oyaviy-hissiy baholangan voqyelik ekan, demak, badiiy asar mazmuni ijodkor dunyoqarashi bilan bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, har bir inson dunyoni o'zicha ko'radi, uni o'zicha idrok qiladi va o'zicha baholaydi. Qizig'i shundaki, hammamiz ham o'zimiz ko'rgan voqyelikni real voqyelik deb tushunamiz, holbuki, bu – voqyelikning ongimizdagi biz ko'rolgan va idrok etolgan aksi, xolos, ya'ni, individual borliqdir. Shunday ekan, bir joyda, bir davrda yashab turgan ikki inson ongidagi voqyelikning aksi bir xil bo'lolmaydi. Buning yorqin misoli sifatida "Kecha va kunduz" bilan "Qutlug' qon" romanlarini olib ko'rishimiz mumkin. Ikkala muallif bir davrda yashagani, bir davrni qalamga olgani holda, har ikki romanda akslangan badiiy voqyelik bir-biridan tubdan farq qiladi. Sababi, har ikki adibning asarida ham individual borliq – ularning ongida akslangan voqyelikning badiiy modeli o'z aksini topgan. Voqyelikning ijodkor

ongida qay tarzda akslanishi bevosita uning dunyoqarashiga bog'liqdir. Tasavvur qilingki, ikkinchi jahon urushi voqyealarini ikki qarama-qarshi tomon vakillari bo'lmish yozuvchilar aks ettirdi. Bu holda ulardan biri, masalan, Berlinda o'z jonini xavfga qo'yib tank ostidan nemis qizalog'ini qutqargan sho'ro askarini bo'rttirib ko'rsatishi, ikkinchisi esa vujudi intiqom olovida yongan, yovuzlikka yovuzlik bilan javob berishga jazm qilgan sho'ro askarini bo'rttirishi mumikn. Holbuki, urushda unisi ham, bunisi ham sodir bo'lgan bo'lishi mumkinligini hych kim inkor qilolmaydi. Ko'ramizki, voqyelikning qaysi jihatlarini ko'rish, qaysilarini bo'rttirgan holda uning mohiyati sifatida taqdim qilish ijodkor dunyoqarashi bilan bog'liq ekan.

Haqiqiy san'atkor qaysi ijtimoiy guruhga mansubligidan, qanday ijtimoiy maqsadlarga xizmat qilishidan qat'iy nazar, u yaratgan badiiy asarda umuminsoniy qadriyatlar ustivorlik qiladi. Shu bois ham chinakam badiiy asarda ijodkor har vaqt ezgulik, go'zallik, adolat, insoniylik kabi mangu qadriyatlar tomonida turadi. Umuminsoniy qadriyatlarga zid g'oyalarni o'ziga singdirgan asarning chinakam badiiy qimmatga ega bo'lishi mumkin emas. Zero, bunday asar o'quvchini o'zidan itaradi (ilon tanasi qancha go'zal ranglar jilosiga ega bo'lmasin, odamni o'ziga jalb qilish o'rniga o'zidan itaradi). Ko'ramizki, badiiy adabiyot va san'atdagi go'zallik ma'naviyatdan ayro holda yashay olmaydi, badiiyat estetik kategoriyagina emas, ma'lum ma'noda etik kategoriya ham sanaladi.

Har qanday yozuvchi badiiy asar yozarkan, o'ziga xos so'zlardan unumli foydalanishga, obrazli tafakkur yuritishga alohida diqqat qaratadi. Til – badiiy asarning muhim quroli ekan, nutqiy ongni tilda jilvalantirish uchun ijodkorda Alloh tomonidan berilgan iste'dod bo'lishi lozim. Jumladan, Isajon Sulton badiiy asarlarini kutilmagan voqealar bilan hikoya qilishga e'tibor qaratadi. Adib individual uslubida qabarib ko'ringan xususiyatlardan biri, xoh hikoya bo'lsin, xoh roman yoki qissa bo'lsin, ekspozitsiyasini peyzaj tasviri bilan boshlaydi. Peyzaj badiiy asar mohiyatidagi jamiki voqealarning yuzaga chiqishi uchun kalitdir. Unda tabiat tilsimotidagi har bir detal mohirlik bilan tasvirlanadi. Buni quyidagi lavhada ham ko'rishimiz mumkin:

*“Bahor tog‘larning ustlaridan to nigoh etmas olislardagi yaylovlargacha yastanib ketgan bepoyon kengliklarni sanoqsiz rangu tus, shaklu qiyofadagi anvoyi gul-chechaklar bilan bezaydi, shamollar qatida islarini, gulchanglarini va urug‘larini ko‘tarib uchib, boshqa erlarga sochadi, turli-tuman qushlar u rizqlardan cho‘qib sayrab yurishadi. Gurkirab o‘sgan butalar bag‘rida qurtu qushlar turlicha saslanishadi, chigirtkalar sakraydi, chumolilar emish ilinjida har yoqqa tarqalishadi.*

*Havolarni almashtiradigan va tabiatni jo‘sh tiradigan ikki unsur bor bu erda: shamol va suv. Shamol kurtaklarni ochadi, gulkosalarni to‘kadi, erni uyg‘otadi. Suv tuproq bag‘rida yashirinib yotgan urug‘largacha singib boradi. SHu ikkovlon tuproqni ilhomlantiradi, go‘yo quloq eshitmas, aql bovar qilmas bir sado ila har narsa birdaniga harakatga keladi.”*

Mazkur tasvirda qo‘llanilgan **gul, chechak, qushlar, shamol, suv, chigirtka, chumoli** singari obrazlar negizida insoniy munosabatlar, unga hamohanglik kasb etgan. Qissaning ekspozitsiyasi – bahor tasviri bilan boshlanishida ajib bir hikmatni tuya boshlaymiz. YA‘nikim, unda ibtido olayotgan tabiat ne‘matlari mohiyatan Y Aratganni anglashga bo‘lgan moyillikdir, aslida! Uning mo‘‘jizalarini teran his qilish negizida o‘zining nimalarga qodirligini chuqur «bilib» olishi muhimligi shartlilik sanaladi. Yozuvchi badiiy til me‘yorlarini xususiylashtirmaydi, monologik nutq mohiyatiga o‘ziga xos so‘zlar qiymatini singdirib yuborishga harakat qiladi. Bu azim xalq eposlaridagi so‘z jilvalarini esga soladi.

Boshqa tomonda biron xarakter haqida so‘z yuritadimi, albatta uni tabiat sir-sinoatining «tili» bilan yaqinlashishga, hamma narsa tabiatda mavjud, biz uni faqat hol tili bilan anglashimiz lozim ekanligiga mantiqiy urg‘u beradi:

*“Qishloq tomorqalari aro olingan sarg‘ish guvalak devor ustiga quyosh chiqmasidan ninachilar qo‘nib olishgan. Ular turli-tuman. Masalan, kichkina sariq ninachi zaif bo‘ladi, tez charchab qoladi. Qizg‘ish tusli yana bir turi ham bor. Eng kattasini, ko‘k ranglisini ot ninachi deymiz, u sira toliqmaydi. Boshqalari tonggi shudringda namlangan qanotini guvalak yoki erdagi kesak ustida quritib*

*o'tiradi, kattasi esa qanoti nam bo'lsayam uchaveradi. Tomorqa adog'ida baland teraklar bo'y cho'zgan. Ostlarida o'tlar gurkirab o'sgan, pechaklar oppoq gullab, terak tanasiga chirmashib, hatto uchigacha chiqib ketgan.*

*Ra'no degan ko'zlari chaqnab-chaqnab turadigan bir qizcha mana shu hovlida dunyoga kelgan”.*

Keltirilgan lavhada yuqoridagi mulohazalar o'z isbotini topgan. Olamning siri – quyosh chiqishi, hayvonotu nabotot dunyosining yashash uchun kurashi, uni ko'rib-kuzatib katta bo'layotgan murg'akning qalbida faqat oydin xayollardan boshqa yana nima bo'lishi mumkin? Adib ana shu mangu savolni qaytmas bolalikning shirin damlari ila yashayotgan qahramon qismati timsolida ko'rsatishni birinchi planga chiqaradi. Bu o'rinda o'ziga xos til – o'zbekona andisha, ibo-hayo, or-nomus, ota va ona, farzand munosabatlaridagi fikrlar xilma-xilligi muhim ahamiyat kasb eta boradi.

Qissani ajib tabiat tasviri bilan boshlagan adib xotimaga ham o'ziga xos badiiy chizgilar beradi. Ya'ni hayot sinovlaridan mardona engib o'tgan Ra'noning bosib o'tgan umr yo'lida qanday mashaqqatlar bo'lmasin, barchasini sabr-qanoat bilan engib o'tishning uddasidan chiqadi. Qissaning “Onaizorim” deb nomlanishida mungli hikmatning anglagandek bo'lasan kishi. Chunki o'zbek xalqi azaldan “bolam-chaqam” deb yashaydi. Uning taqdiri ham azaldan shunday bitilgan. Qissada badiiy tilning jozibadorligini ta'sirli chiqishiga yana muhim sabablaridan biri – yozuvchi olib chiqqan dard zalvori bilan belgilanadi. Biz qissani o'qib, niyahoyatda dardchil qissa degimiz keladi. Unda hayotini oilasi kamoli uchun tikkan ayol siymosi va uning hech kimga aytolmaydigan pinhon sirlari har bir o'qirmanni teran o'ylashga undaydi, munosib saboq chiqarishga da'vat qiladi. Qissa xotimasidagi ushbu mulohazalar ham fikrimizni to'liq quvvatlaydi:

“Yana bahor keldi. Yana dalalar, yaylovlar, sen qadam qo'ygan yo'laklaru so'qmoqlar uzra chappar urib nozlandi.

Sen ham bahor kabi emasmiding, onam?

Yo‘q, sen tuproq kabi eding. Bag‘ridan anvoyi chechaklarni o‘stirib yuborgan va tevarakni go‘zalligu latofatga burkagan, insonlar uchun turli mevalarni etishtirib g‘arq pishirgan, bolalaring hamda yaqinlarningning xoki poyiga yaslanib, o‘zini insonlar uchun xarj aylab yuborgan xoksor tuproq!

Yo‘q, sen suv kabi eding-ku, onaginam? Umring suvday oqarkan, mehring, sevging, bag‘rikengliging ila qalblarni yashillantirib gulu chechaklar ochtirgan, jon tomirlarga hayot musaffoligini etkazib, o‘zi ham bir daryoday uzoq-uzoqlarga qaytmas bo‘lib oqib ketgan...

Sen shamol kabi emasding, ona? Boshim uzra hayotbaxsh esib, umr kurtaklarini ochgan, havolarni almashtirib, qanchadan-qancha gullarni yashnatgan, unum keltirgan va shamollar kabi elib-elib o‘tgan...

Sen otash ham eding, nuridiydam! Harorating bo‘lmasa edi, bolangning bu jo‘shislari, bu shiddati, bu g‘ururi qaydan ham kelardi?”<sup>21</sup>

Monologik nutq ritorik musohaba bilan yakun topadi. Yozuvchi bu kabi tasvir usuli bilan istiqlol davri o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos yangi bir yo‘nalishga asos solgandek go‘yo. Chunki uslubiy o‘ziga xoslik bo‘lgan taqdiridagina adib muhokamasi uzoq yillar davomida bahs-munozaraga sabab bo‘ladi. Qissada bir oila timsolida bo‘lgan va bo‘layotgan hodisotlar zukko o‘quvchining tasavvurlariga turtki beradi. Ayniqsa, ayol qalbini teran anglagan adib talqinlari jahon durdonlari bilan bemalol bellasha olishiga shak-shubha yo‘q. Zotan, “taqdir shamoli” bo‘lmaganida Ra‘no va uning haqida so‘z yuritilmas edi. “Taqdir shamoli” qissa qahramonining butun hayotini minglab chigalliklardan omon saqlab qoldi. Bu o‘zbek xalqining sabr va irodasi, bardoshi, chidamliligi, mehnatdan qaytmasligi kabi bir necha azaliy xususiyatlar, fazilatlar, qadriyatlar bilan o‘lchanadi, albatta!

Yozuvchi badiiy mahoratining yana bir jihati shundaki, asarda birgina qahramon hayotining muammolari ko‘rsatilibgina qolmasdan, balki millatning ikki avlod vakillarini o‘zaro yuzlashtirish orqali qismatlar to‘qnashuvi namoyish etiladi. Qissada aks etgan fojeaviy tasvirlar Isajon Sultonning dastlabki asarlariga xos

---

<sup>21</sup> Кўрсатилган адабиёт 75-бет.



boʻlgan liro-romantik uslubdan chekinib, hayotning shafqatsiz realistik manzaralarini tasvirlovchi adib sifatida namoyon boʻlishiga xizmat qiladi. Adib tanlagan shafqatsiz realistik uslub aynan qissa kontseptsiyasiga mos ravishda tanlanganini alohida taʼkidlash zarur. Yozuvchining fojealarini faqat ikki tomonlama boʻladigan lavhalar tasviri orqali emas, balki, uning qahramonlar qismati va yuragida ogʻriqli nuqta boʻlib qoladigan ayanchli asoratlarning badiiy tasviri orqali koʻrsatishi asarning ishonarli hamda oʻqimishli boʻlishini taʼminladi.

Adabiyotdagi milliy oʻzlikni anglash deganda voqelikning millat xarakteriga mos jihatlarini tasvirlash, milliy anʼanalarni qadrlash hamda milliy iftixorni tuyish natijasida badiiy adabiyotda milliylik tamoyillarini kengroq aks ettirish nazarda tutiladi. Shu nuqtai nazardan istiqloq davri va mustaqillik arafasida yaratilgan romanlarni kuzatganda, xalqimizning milliy tabiati va mentalitetiga xos koʻplab xislat va xususiyatlar aks eta boshlaganini millat kishisining “feʼlini koʻrsatish, uning dardi, quvonchu, koʻngil kechinmalari tasviriga koʻproq eʼtibor qaratilganini payqash qiyin emas. Ayniqsa, soʻnggi davrlarda yaratilgan romanlarda bu yaqqol namoyon boʻlmoqda. Sababi, roman janri bu borada keng imkoniyatlarga ega boʻlib, u oʻz bagʻrida turli tarixiy voqealarni ham, xalq ruhiyatining koʻzgusiga aylangan qadimiy anʼana va udumlarni ham, millat kishisining qalbida kechgan botiniy evrilishlarni ham butun borligʻicha aks ettirish imkoniyatiga egadir. Shuning uchun ham milliy qahramon va milliy ruhiyatning badiiy talqini masalalarini roman tahlili doirasida oʻrganish qahramon xarakterining davr muammolari tizimidagi ifodasiga doir yangi nazariy umumlashmalar qilishga imkoniyat yaratadi.

Qissada badiiy til nihoyatda sodda va mantiqiy fikrlashni talab qiladi. Adib har soʻzdan unumli foydalanganki, unda til qonuniyatlari yuksak mohiyat kasb etgan. Qishloq hayotiga xos soʻz-shevalardan foydalanish qissa jozibadorligini oshirishga xizmat qilgan.

Ota xastalanib yotib qoldi.

Kuz kelgan edi. Behining yaproqlari oltin rang olgan, terak qirmizi tillarang, oʻtlarning uzun barglari tubidan och-yashiltob sargʻaygan, ariq suvi yashil tus

olgan edi. Havoda mezonlar ucha boshladi. Ertalablari o'tloqlar shudringdan jiqqa ho'l bo'lardi, ekinzorlarning kulrang tuprog'i namdan qorayib qolardi.

– Nima bo'ldi sizga? – dedi ona.

– Bilmadim, – dedi ota ihrab. – SHu, biqinim sanchiydi. Anchadan beri sanchib-sanchib qo'yardi, o'tib ketar deb yuraveribman, endi kuchayib ketdi.

- Voy o'lmasam, nima qilamiz?

– Maqsud do'xtirni chaqiraqol, – dedi ota.

Ona qo'shninikiga chiqib ketdi. U erdan “Maqsud do'xtirnikiga borib keling, bolam, akangizni mazasi qochib qoldi”, degani eshitildi.

Ra'no otasining yonida ne qilarini bilmay o'tirardi. Bir nima deb ko'nglini ko'targisi kelardi, o'ylab turib-turib, axiyri:

– CHoy damlab kelaymi, ota? – deb so'radi.

Otaning atrofi tirishlarga to'la ko'zida iliq ifoda paydo bo'ldi. “Jonim qizim”, dedi ovozi allanechuk o'zgarib. YAna bir nimalar demoqchi bo'lib jim qoldi, o'ylari ko'zlaridan bilinar edi. Har holda, suyib-alqab ancha gaplar aytgisi kelgan bo'lishi mumkin. Keyin qiynalibroq bir yutindi-da:

– Mayli, qizim, – dedi.

Ra'no otaning ayta olmagan gaplarini tushunganday edi. O'sha mahalda nimalar degisi kelgan ekan ulkan gavgavli barvasta bu kishining? Qalb sezib-tug'yon ko'tarar, o'zini ota bag'riga otgisi, to'yib-to'yib yuzlarini ishqagisi, yana allaqancha noma'lum istaklar bor va hammasi qizning otaga ulkan mehridan bino bo'lmoqda edi.

Lekin, ota ham bir nima demadi, qiz ham. Ra'no ayvonga bordi-da, choy damlashga tutindi”<sup>22</sup>.

Adabiyotshunosligimizning xozirgi imkoniyati yangi yo'nalishlar borasida, ko'proq, chet el mutaxassisleri tadqiqotlaridan foydalanishga yaramoqda, xolos. Bu esa masalaning ikkinchi bir nozik jihatini yuzaga keltiradi. Ya'ni adabiyotimizdagi o'zgarishlarga G'arb postmodernizmi nuqtai nazaridan yondasharkanmiz, ular haqida birmuncha sun'iy, ayni damda, noto'g'ri xulosalarga

---

<sup>22</sup> Kўрсатилган адабиёт, 69-бет.

kelishimiz turgan gap. Chunki, sog`lom fikr yuritilsa, postmodernizm ijobiy hodisa emas. Ayni shunday postmodernizm ham. Yana shunday fikr yuritilsa, bu yo`nalishlarning muayyan ta'sirini ham inkor etib bo`lmaydi. Boisi, G`arb va Sharq kishisi o`rtasidagi farq katta bo`lmasin, jahonda hukm surayotgan globalizatsiya, madaniy, iqtisodiy-siyosiy hayotning umumiy jihatlari talaygina topiladi. Shu sababdan yangicha yo`nalishlarga munosabat bildirilayotganda ularning ta'sirini inkor etmay, adabiyotimizda yaratilayotgan asarlarga umumjahon kayfiyatining milliy zamin tayangan qadriyatlar bilan o`zaro sintezi sifatida qarash o`rinli bo`ladi:

Saharlab qush uyqusida xiyol ko`zi ilingan Ra`noni xolasi dahlizdan ovoz berib uyg`otdi.

“Tur, qiz bo`lmay qol, hovlilarni supur, ishlaringni qil”, dedi pichirlab.

Ra`no o`rnidan turdi. Ohorli kelinlik liboslarini kiydi, u liboslar o`ziga yarashdimi-yo`qmi, oynaga tuzukroq qaray olmadi xam, ammo rang-barangligi, ishlari va yangiligi yoqar edi.

Tashqari chiqarkan, u ham pichirlab, xoladan:

– Supurgi qayda ekan? – deya so`radi.

– Hammasini topib qo`yganman, – dedi xola. – Men ham chiqaman, bo`laqol. Hovli kenggina edi. To`y o`tgach, qolgan qavmu qarindosh hammayoqni saranjomlab ketishgan ekan. Bir chetda dasta-dasta piyolayu laganlar turar, rayhonlar ostida Ra`no yangi supurgini ko`rdi. Xolasidan minnatdor bo`lib, hovli supurishga tutindi. Ko`cha eshik oldini ikki tarafdagi qo`shnilarning darvozaxonasigacha supurib bordi, suvlar sepdi, keyin qaytib kirib, nonushta tayyorladi, bu orada qaynota-qaynona ham turishdi. Bir chetga qumg`onda suv ham isitib qo`ygan edi, qaynota keliniga qaramasdan, borib tahoratini olib keldi. U kelguniga qadar Ra`no shoshilib ular yotgan uyga kirib, joynamozini qiblaga to`g`rilab soldi”<sup>23</sup>.

Adabiy jarayondagi har bir yo`nalish ko`proq o`zi ommalashgan davr ruhi, ijtimoiy hayotning butun rang barang kayfiyati ifodasi uchun mos keladi. Xususan,

---

<sup>23</sup> Kўrsатилган адабиёт, 77-бет.

postmodernizm 90-yillar ijtimoiy hayotida ijodkor e'tiborini tortgan bo'lsa, postmodernizm bugungi kun kishilari ruhiyatini belgilaydi. Ammo o'tgan davr mobaynida postmodernizm borasidagi qarashlar xilma-xilligi, asosan, uning milliy adabiyotimiz namunalarida bor yoki yo'qligi masalasi bilan cheklanadi. Mutaxassislarining aksariyat chiqishlarida postmodernizmni o'zbek mentalitetiga yot hodisa sifatida talqin etish, bu yo'nalishni sharhlash yoki uni tasdiqlash va shakl xususiyatlariga mahliyolik ustuvor ekani kuzatiladi. Aslida, o'zbek postmodernizmi ham, xuddi G'arbdagi kabi o'zining ijtimoiy-ruhiy asoslariga ega estetik hodisa bo'lib, uning ortida 80-yillar oxiri 90-yillar avvalida mintaqamizda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning kayfiyati yashiringan edi. O'zbek postmodernizmining «qaynagan» vaqti 90-yillarga to'g'ri keladi. Bunga sabab ijodkorlarni birlashtirgan bir xil kayfiyat va shu kayfiyatni ta'minlab turgan« o'tish davri» edi. Nazar Eshonqul, Isajon Sulton va Ulug`bek Hamdamning qissa va hikoyalari yaqin o'tgan tarixning butun kayfiyatini akslantiradi. Chunki bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga o'tish xalqimizning iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayotida jiddiy qiyinchiliklar bilan amalga oshgani hech kimga sir emas. Shu ma'noda 90-yillar adabiy jarayonida bilibmi yo bilmay postmodernizm bayrog'i ostida birlashgan ijodkorlar avlodini bir xil kayfiyat umumlashtirib turardi. Lekin unga «sof», «ijtimoiylikdan holi» san'at sifatida qaraldi, uning ortidagi kayfiyat unutildi. Ta'kidlash joizki, o'zbek postmodern adabiyotida shu nuqtai nazar o'z tahlilini hamon kutib turibdi. Obyektiv hodisa sifatida, bizning postmodernizmga salbiy yoki ijobiy munosabatda bo'lishimizdan qat'iy nazar, u madaniy hayotimizda mavjud bo'ldi va sezilarli iz qoldirdi. Faqat uni tahlilga tortganimizda milliy ruhni nazardan qochirmasligimiz, o'zbek postmodern adabiyotini G'arbdagisiga taqlid sifatida yoritmasligimiz talab qilinadi. Kezi kelganda ta'kidlab o'tish joizki, hozirda bu postmodernchilarning ko'pchiligi sust ijod qilmoqda yoki umuman yozmay qo'ygan. Yozayotganlari ham o'z uslubi, maqsad va g'oyalarini o'zgartirgan. Chunki 90-yillar sharoitida bu ijodkorlarni «qaynatgan» kayfiyat allaqachon so'nib ulgurgan. Bugungi kun esa kechagisidan tamomila farq qiladi. Fan-texnika, kommunikativ vositalarning hadsiz rivoji davr kishilariga

tarqoq kayfiyatlarni ulashmoqda. Olam bugungi kun kishisi uchun turli rakurslardan akslanmoqda.

Inson ichki iztiroblarining eng ko‘p foizi mavhum va notayin tuyg‘ularning ko‘z ilg‘amas to‘rlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Turmush tashvishlariga bandi Odam avlodi aksariyat bunday holatlar mohiyatini anglashga, tushunib etishga urinmaydi ham. Balki ko‘pchilik bu harakatdan samara yo‘qligini anglaganlari bois ham urinishmas. Ammo bir toifa kishilar borki, ular, o‘ta chigal murakkab bu jarayon ustida tafakkur qilishga ma’lumlar. Bu toifa umum shevasida ahli qalam, ahli ijod, deb yuritiladi.

Norveg mutafakkir adibi YUxan Borgen ijod psixologiyasiga doir murakkab jarayonlar xususida yozadi: «Insonning o‘tmish haqidagi xotiralari hech qachon yaxlit shaklda saqlanib qolmaydi, balki nozik bir ishora, mavhum tuyg‘u yoki buyum timsolida milt etadi-yu, tizginsiz xayollar oqimiga singib ketadi».<sup>1</sup> Uning fikricha, badiiy ijod mavhum tuyg‘ular shu’lasini ilg‘amoq, so‘zda ifoda eta bilmoqdir. Ijod – ko‘p bosqichli hodisa. SHubhasiz, Borgen nazarda tutgan ushbu jarayon ham jahon adabiyotining duch kelgan namunasiga emas, balki badiiy ijodning eng oliy bosqichiga tegishlidir.

Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasida badiiy til – sheva va oddiy so‘zlashuv usulidan o‘rni o‘rnida foydalanishada ko‘zga yaqqolroq tashlanadi. YA’ni qahramon nutqini idividuallashtiriar ekan, unda mohiyat o‘ziga xos tarzda gavdalanadi. Tilning noodatiy xususiyatlari emas, dostonga xos engil va sodda so‘zlar zamiriga umuminsoniy muammolarni singdirib yuboradi:

“Sovchilar yana kelishdi. Endi ularga beriladigan javob aniq edi.

– Sahar kelib ko‘changizni supurib ketay desam, zamon boshqa, ammo shu qizingiz uchun yil bo‘yi har kuni supurishgayam roziman, – deya avradi kuyovning ammasi, semiz xotin.

O‘z amma-xolalari ham shunda edilar.

– Sizday xushmuomala, har narsani o‘ylab ish tutadigan oilaga bermasak, kimgayam berardik, – dedi ona. – Qoshimni ostida, kiprigimni ustida avaylab

---

<sup>1</sup> Юхан Борген. Ёзувчи былмо= нима дегани? \\ Жащон адабиёти, 2001, 2-сон.

o‘stirgan qizimga o‘zimdanda ham afzal ona bo‘lasiz-ku, sizniyam, avlod-ajdodingizni ham yaxshi bilaman.

Bu bir ishora, zamirida o‘ksikroq hayiqish sezilar, ya’ni, berishga berarmizu ammo shuncha yil zahmatlar bilan katta qilgan qizimga o‘z bolangizday qararmikansiz degan ilg‘ar-ilg‘anmas bir o‘tinch ham bor edi. Non sindirildi, oqlik berildi. Kelganlarning erkaklariga belbog‘, ayollariga ro‘mol, dasturxonlariga non va qand-qurs solindi. Sovchilar xushhol, yuz-ko‘zlari sevinchu mamnuniyatdan porlab, xayr-xo‘shlashib jo‘nashdi. “Xudo xohlasa, endi qarindosh bo‘ldik”, deyishdi ketar oldidan. “Oqlik ham berildi, endi bu yog‘i to‘y, qiz o‘lgur”, dedi xolasi, Ra‘noni biqinini chimdib, sevib-suyib.

“Hoy qiz, endi ko‘chaga chiqqaningda qarindosh-urug‘laridan birontasi o‘tib qolsa qochgin, – dedi ona. – Yo‘ling o‘sha tomonga tushsa, u ko‘chadan yurmagin.

Gapirishsa gapirmaysan, ko‘rishaman desayu qochgani ilojing qolmasa, erga qarab turasan.

Elning ko‘zi senda bo‘ladi, bularning bari sening hayo-odobingni ko‘rsatadigan narsalar, hushyor bo‘lasan”.

Qo‘ni-qo‘shnilar – keng-mo‘l guldor ko‘ylak kiygan shaddod-shaddod xotinlar ko‘rpa-to‘shak qavigani chiqishdi.

Qoq erga kattakon palos solindi. Qo‘shnilar u yoq-bu yoqdan gaplashib, to‘shak qavir edilar<sup>24</sup>.

Qahramon taqdiriga o‘zgartirish kiritish emas, uni personajlar orqali ochib berish Isajon Sulton uslubiy manerasiga bog‘liq eng birlamchi xususiyat deyish mumkin. Negaki, adib muhokamada mavjud qoidalarni sayqallamaydi, balki tabiiy saqlashga intiladi. Bu o‘zining tildan nechog‘li mahorat bilan foydalanish lozimligini keltirib chiqaradi. Mazkur lavhada adib Ra‘noning to‘yi bo‘lish rasm-rusmlarini tasvirlaydi. Qahramon intellektini namoyish qilishga asoslangan tasvir ruhiyatini bir-biriga mohirlik bilan payvandlay olgan. Tagzminrida qissa voqealari shu o‘rinda yanada ochiqroq shaklda guzallashadi. Binobarin, taqdir Ra‘no ismli qizga baxt ato qilmoqda edi. Bu baxtdan sarmast yashash qizning orzularini yanada

---

<sup>24</sup> Кўрсатилган адабиёт, 78-бет.

ko'paytirib yuboradi. Biroq to'ydan keyingi hayot qanday mashaqqatlarni olib kelishini u sira bilmas edi. Bu ham yozuvchining shiddatkor uslubidan dalolat berib turibdi.

Adib tilning antonim, sinonim, paronim kabi ifoda xususiyatlaridan unumli foydalana olganki, qahramon xarakter qirralari yanada ajib tarzda yuzaga chiqadi. Bir qarashda muhim sanalgan poetik tarx mustaqil ifodalarga yo'l ochadi. Adib bir boshdan hikoya qilib berayotgan voqelikni aslida roviy obrazi boshqaradi uni saralaydi, baholaydi, o'zgartirish kiritadi, tahrirlaydi.

## UMIMIY XULOSALAR

Yuqorida keltirilgan dalillar asnosida bugungi o'zbek nasrida ham postmodern kurtaklarini kuzatishimiz mumkin. Metarivoyatga yo'g'rilganlik, an'analarni o'ziga singdirish va ularga kinoyaviy munosabatda bo'lish, universal gumanizm, uning obekti jami tirik mavjudot tabiat, koinot butun olam va shu bilan bir qatorda retorika mazmuni yetkazish shakli muhimligi. Isajon Sultonning "Onaizorim" qissasini tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalar kelib chiqadi.

- qissada adib insonning botiniy olami orqali hayot voqeligini aks ettirgan. Shu jarayonda g'arb adabiyotidagi xarakterli xususiyatlarni bu asar sujetiga singdirish bilan birgalikda olam va odam haqidagi tasavvurlarini ichki kechinmalar ong osti tasvirlari orqali yuzaga chiqarishga intilgan.

- bu asar tarkibidagi obrazlarda o'ziga xos xarakter yaratish an'anasini tahlil, qilish jarayonida inson ruhiyati, kechinmalari xayoliy tasavvurlar, mushohadalar asosida yuksak darajaga ko'tarilganligini kuzatdik. Adib ijodidagi bunday tasvir usuli, keyingi davr o'zbek adabiyotidagi noan'anaviy talqin tushunchasiga asos bo'lganligini alohida ta'kidlash zarur.

- adib asarida real hayotiy voqelikka bo'lgan munosabat bilan bir qatorda kitobxonni mushohada qilishga o'z tushunchalarini qayta tahlil qilishga undovchi falsafiy talqin ramziylik kabi holatlar mavjudki (aniqrog'i go'zallikni reallikni ichidan izlash), bu esa jahon adabiyotidagi yetakchi tamoyillardan unumli foydalanganligidan dalolatdir.

- "Onaizorim" qissasidagi obrazlar tizimi real voqelikka nisbatan botiniy olamdagi ziddiyatlar asosida asar voqealarining rivojini kuzatamiz. Bu tasvir usuli adib ijodida o'ziga xos xarakterli xususiyatlardan biridir.

- yozuvchining "Onaizorim" qissasidagi badiiy talqinlar adibning inson tafakkuridagi evrilishlarni haqqoniy yuzaga chiqarishga asos bo'lganligini ko'rsatishga intildik.

- "Onaizorim" qissasidagi murakkab taqdir egasi bo'lgan qahramonlarning badiiy obrazini yaratishda ramzlar yetakchilik qilganligi ko'rsatildi. Sharq



adabiyotiga xos tasvir usullarini obraz yaratishdagi o'zaro uyg'unlikda, murakkab va ko'p ma'noli ramziy obrazlarni kashf etish jarayon bilan qiyosiy tahlil asosida kuzatildi.

Aytish mumkinki, inson e'tiqodi, irodasi ma'lum darajada jamiyatdagi mavjud o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, keyingi davr adabiyotida inson xarakterini yaratishda va ruhiy olamini yoritishda adib ijodining alohida o'rni mavjud. Yozuvchining barcha asarlari inson kechinmalarini, hayotdagi o'rni talqin etishda o'ziga xos badiiy tasvir usullaridan foydalanadiki, bu esa ijodkorning betakror uslub egasi ekanligidan dalolat beradi.

Adib ijodida postmodern kurtaklarini ilk nishonalarini, ayrim belgi va xususiyatlarini kuzatishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda asar tarkibidagi ramzlar, falsafiy mushohadalar kitobxonni mulohaza yuritishga, o'zligini anglashda yetakchi rol o'ynaydi.

Biz yaqin-yaqingacha insonni o'z fe'l-atvoridan uzoqlashib, begonalashib boryapti, degan g'arb kishisining axloq va odob xususidagi qarashlariga unchalik xushlamay kelayotgan edik. Lekin dunyodagi ana shunday dolg'ali evrilishlar, inson o'z tabiatining yovuz quliga va yovuz maxluqotiga aylanib borayotganidan hadiksiramadik ham. Yozuvchi tabiat manzarasini chizishga usta. Unda insonni tabiat ichkarisidan turib, qalb tabiatini tasvirlaydi. Romanda turfa xil ohanglarda insonning ruhiy olami yoritiladi. Xarakter shakllanishi odam va olamni anglashga xizmat qiladi.

“Onaizorim” qissasida insonning botiniy olamidagi turli ziddiyatlarni falsafiy talqin etadiki, bu esa o'quvchini tafakkurini o'zgarishiga, hayotni anglashga xizmat qiladi.

Qissada insonlar tabiatidagi ma'naviy-axloqiy xislatlarni topish va aks ettirish, qahramon ko'nglida kechgan tuyg'ular ziddiyatini, ongi-shuuridagi fikrlar evrilishlari ma'nosini ramzlarga ko'chirish yetakchilik qiladi. Bu tushunchalar asar sujetidagi postmodernistik fikrlar yig'indisini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun har bir asarning badiiyligi qahramon psixologiyasi hayotiy va yorqin aks ettirilganligi bilan izohlanadi. Asardagi ramziylik mazmunning haqqoni yuzaga chiqishiga asos

bo'lgan. Olamni, odamni badiiy idrok va ifoda etishda bashariy qadriyatlar nuqtayi nazaridan yondashish yetakchilik qiladi. Falsafiy psixologizm – ramzlar, timsollar asosiga qurilganligi yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubini asosli tarzda yuzaga chiqargan. Qissada o'zlikni anglash, o'zligini topish va namoyon etish holatlarini mahorat bilan yoritib bergan.

- Ra'no va uning taqdiri bir insonning hayotini emas, butun o'zbek ayollarning ruhiyatini ko'z o'ngimizda gavdalantira oladi.

Umuman, qissaning muhim fazilatli tomonlari shundaki, metaforik birliklar hamda tilga oid unsurlar poetik mantiqqa asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Chunki adib bir boshdan voqelikni kuzatuvchi emas, uni vaqti-vaqti bilan baholab ham boradi. Ra'no tabiati va o'zbekona ayollar ruhiyatidagi evirilishlarni nozik sezimlar bilan tasvirlay olgan adibni muvaffaqiyat bilan olqishlash mumkin.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

### I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar: –T.: O'zbekiston, 2001.
2. Karimov I.A. Ilmu fan mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilsin. Asarlar to'plami. 2-jild. –T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.–T.: O'zbekiston, 1998.
5. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008.

### II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

6. Adabiyot nazariyasi. II tomlik. 1-Tom. Adabiy asarda konflikt. – T.: Fan, 1978.
7. Adabiy turlar va janrlar. III tomlik. 1-t. – T.: Fan, 1991.
8. Alimasov V. Falsafa yoxud fikrlash chanqog'i. –T.: Falsafa va huquq nashriyoti, 2004.
9. Aristotel. Poetika. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
10. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari. – T.: Mumtoz so'z, 2012.
11. Boltaboev H. Nasr va uslub. –T.: «Fan», 1992.
12. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. –T.: “YAngi nashr” nashriyoti, 2010.
13. Qosimov A. Adabiyotdagi egzistensializm va absurd tushunchalrining falsafiy asoslariga doir. // –T.: O'zbek tili va adabiyoti. 2002. 6-son.
14. Quronov D. Adabiy jarayonda «Mom sindromi». –T.: “Akademnashr”, 2010.
15. Mirvaliev S. O'zbek romani. –T.: Fan, 1969.
16. Мотылева Т. Zarubejnyy roman segodnya. – Moskva. “Sov. pisatel”, 1966.
24. Normatov U. Janr imkoniyatlari. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970.
25. Normatov U. Ijodkorning dahlsiz dunyosi. –T.: “Mumtoz so'z”, 2008.
26. Normatov U. Nasrimiz tamoyillari. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
27. Solijonov Y. Nutq va uslub. –T.: CHO'lpon, 2002.
28. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1986.
29. T.Jo'raev “Ong oqimi modern”. – Farg'ona. “Farg'ona” nashriyoti, 2009.

30. Timotij Uinter. XXI asrda islom. Postmodern dunyoda qiblani topish. – Toshkent, “SHarq”, 2005.
31. U Normatov. Ijod sehri. "SHarq" –T.: 2007.
32. Umurov H. Adabiyot qoidalari - T.: O‘qituvchi, 2010.
33. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. –T.: «O‘zbekiston» 2001.
34. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi zamon o‘zbek romanchiligi. –T.: Fan. 1983.
35. Hamdamov U. YAngilanish ehtiyoji. –T.: “Fan” nashriyoti, 2007.
36. SHukurov N. Uslublar va janrlar. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973.
37. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –T.: «SHarq», 2002.
38. Yo‘ldoshev Q. YOniq so‘z. –T.: «YAngi asr avlodi», 2006.
39. SHarafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T.: «SHarq», 2004.
40. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. –T.: «YOzuvchi», 1996.
41. S.Sodiq. Ijodning o‘ttiz lahzasi. –T.: «SHarq», 2005.
42. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: «O‘zbekiston», 2002.
43. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: 2004.

### **III. Badiiy adabiyotlar:**

1. Isajon Sulton. Ozod. – Toshkent, “SHarq”, 2012.
2. Al’ber Kamyu. Begona. Qissa va roman. –T.: “YOzuvchi” nashriyoti, 1995.
3. Isajon Sulton Onaizorim. Qissalar va hikoyalar. –T.: “SHarq”, 2015.

### **IV. Internet materiallari:**

1. [www.ulugbekhamdam.uz](http://www.ulugbekhamdam.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.khurshiddavron.uz](http://www.khurshiddavron.uz)
6. <http://www.yozuvchi.uz>

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti "5120100 – o'zbek tili va adabiyoti" bakalavr ta'lim yo'nalishi 4 kurs bitiruvchisi Tazabaeva G'uncha Baxtibay qizining "Hozirgi o'zbek qissachiligida ona obrazining badiiy talqini" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar**

## **XULOSASI**

Jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlar bo'layotgan bir paytda ta'lim tizimini ham jiddiy modernizatsiya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, san'at, adabiyot sohasidagi tizimli o'zgarishlar buning yorqin dalilidir.

O'zbek adabiyotida ona va unga cheksiz hurmat hamisha hamma zaonlarda muqaddas insoniy fazilat sanaladi. Onalar haqida yaratilgan badiiy asarlar hamisha o'zining yorqin obrazlilik bilan har birimizga ibrat namunasi bo'lib xizmat qilishi tayin.

Bitiruvchi talaba Tazabaeva G'uncha "Hozirgi o'zbek qissachiligida ona obrazining badiiy talqini" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yuqoridagi mulohazalarimizning mantiqiy asosidir.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzabligi, o'rganilish ahamiyati, maqsad va vazifalari borasida aniq rejalar berilgan. BMI uchta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 52 sahifani tashkil qiladi. Ishda yozuvchi Isajon Sultonning "Onaziorm" qissasini tahlilga tortadi. Unda bosh qahramon Ra'noning onalargcha mehribonligi, mehmondoo'stligi, bir o'zbek mushtiparining mardona jasorati, sabru toqati haqida keng miqyosda tahlil qilinadi.

Ishning birinchi bobi "Noan'anaviy talqin va bugungi o'zbek nasri" deb nomlanib, unda har bir asar poetikasidagi muhim jihatlar tahlilga olingan. Ikkinchi bob "Qissada folklor an'analar va o'ziga xoslik" deb atalgan bo'lib, mifologiya, xalq og'zaki ijodiga xos kategoriyalar o'z echimini topgan. uchinchi bob "Qissada badiiy til masalasi" deb atalgan. Ayniqsa, badiiy tilga qanday ishlov berganligi yozuvchi poetik mahorati bilan uzviy tarzda yoritilgan.

Ishning xulosa qismida har uchala bobdagi ilmiy-nazariy mulohazalar umumlashtirilib, yaxlitlashtirilgan. To‘g‘ri ishda ayrim imloviy kamchiliklar uchraydi. Bular ishning umumiy saviyasiga ta‘sir qilmaydi. Bular to‘g‘irlasa bo‘ladigan xatolardir.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal’a pedagogika fakulteti “5120100 – o‘zbek tili va adabiyoti” bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4 kurs bitiruvchisi Tazabaeva G‘uncha Baxtibay qizining “Hozirgi o‘zbek qissachiligida ona obrazining badiiy talqini” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini YAkuniy DAK huzuridagi ochiq himoyaga tavsiya qilaman.

**Ilmiy rahbar:**

**f.f.f.d. X.TO‘LIBOEV**

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti "5120100 – o'zbek tili va adabiyoti" bakalavr ta'lim yo'nalishi 4 kurs bitiruvchisi Tazabaeva G'uncha Baxtibay qizining "Hozirgi o'zbek qissachiligida ona obrazining badiiy talqini" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

## **TAQRIZ**

Hozirgi o'zbek nasrida har qachongidan yangilanishlar ko'zga tashlanib, jahonga yuz burmoqda. Ayniqsa, istiqloq yillarida bu holat yanada jonlanib, yangi yangi asarlar yaratildi. Ular adabiyotshunoslar, munaqqidlar tomonidan e'tirof etildi.

Iste'dodli yozuvchi Isajon Sulton ijodida ona borazining badiiy talqini borasida izlanishlar olib borgan bitiruvchi Tazabaeva G'uncha Baxtibay qizining "Hozirgi o'zbek qissachiligida ona obrazining badiiy talqini" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi nizom va talabalar asosida bajarilgan.

Ishning kirish qismida mavuzning dolzarbligi, o'rganilish ahamiyati, maqsad va vazifalari, metodologik ta'minoti kabi qator jihatlarga to'xtalib, aniq mezonlar belgilab olingan.

Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobi "Noan'anaviy talqin va bugungi o'zbek nasri" deb nomlangan. Mazkur bobda har bir asar poetikasidagi muhim jihatlari tahlilga olingan. Tadqiqotning ikkinchi bob "Qissada folklor an'analar va o'ziga xoslik" deb atalgan bo'lib, mifologiya, xalq og'zaki ijodiga xos kategoriyalar xususida fikr yuritiladi. Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bob "Qissada badiiy til masalasi" deb atalgan. Jumladan, badiiy tilga qanday ishlov berganligi yozuvchi poetik mahorati bilan uzviy tarzda yoritilgan.

Tadqiqotning xulosa qismida har uchala bobdagi ilmiy-nazariy mulohazalar umumlashtirilib, yaxlitlashtirilgan.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti "5120100 – o'zbek tili va adabiyoti" bakalavr ta'lim yo'nalishi 4 kurs bitiruvchisi Tazabaeva G'uncha Baxtibay qizining "Hozirgi o'zbek qissachiligida ona obrazining badiiy talqini" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini YAKuniy DAK tomonidan munosib baholanishga loyiq deb hisoblayman.

**Taqrizchi:**

**f.f.f.d. M.QURBANIYAZOV,  
Berdaq nomidagi QQDU dotsenti**